

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI

“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrası

«Himoyaga ruxsat etiladi»
Kafedra mudiri
Dots.S.K.Xudoyqulov

«____»_____2014 yil

**MAVZU: AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI SOLIQQA
TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

ILMIY RAHBAR: «Davlat moliyasi va soliqlar» kafedrası katta o'qituvchisi Xoliqov U.R. _____

BAJARDI: «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Ibodullaev Abdulla Ismatovich _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi _____ sonli bayonnoma «____»_____2014 yil.

T O S H K E N T – 2014

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish va soliqqa tortishning ilmiy-nazariy asoslari	
1. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ siyosat yuritish mexanizmi	7
2. Aksiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortishning nazariy va huquqiy asoslari.....	16
3. Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasi.....	24
II bob. Milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili va ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash ("Shofirkon paxta tozalash" OAJ misolida)	
1. "Shofirkon paxta tozalash" ochiq aksiyadorlik jamiyati moliya-xo'jalik faoliyati tahlili.....	35
2. "Shofirkon paxta tozalash" ochiq aksiyadorlik jamiyati faoliyatida soliqlar ta'sirining tahlili.....	42
3. Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar va uni aksiyadorlik jamiyati moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri	48
III bob. Aksiyadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarishni rag'batlantirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish va undirish mexanizmini takomillashtirish	
1. Ishlab chiqarishni rag'batlantirishda korxonalardan olinadigan foyda solig'iga toriladigan bazani takomillashtirish.....	57
2. Soliqlarni davlat byudjetiga o'z vaqtida tushishini ta'minlash masalalari.....	63
Xulosa va takliflar.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	71

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jahonda vujudga kelgan jumladan g'arb davlatlarida suzib yurgan qarz inqirozi sharoitida hukumatimiz tomonidan puxta ishlab chiqilgan moliya siyosati o'zining ijobiy samaralarini berganligini bugungi kunda hammamiz buni yaqqol guvohi bo'lib turibmiz. Bu yutuqlardan biri muhtaram yurtboshimiz tomonidan ta'kidlab o'tganidek, xususan "Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rnini tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda"¹

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va iqtisodiyotda erkin raqobat muxitini yaratishdan iboratdir. Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat korxonalari negizida xususiy mulkka asoslangan turli shakldagi korxonalarni tashkil etish ushbu vazifani xalq etishdagi muxim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xususiy mulkchilikka ham munosabat o'zgardi. Bozor munosabatlarini shakllantirish, tadbirkorlik va tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish, korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish va aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bularning barchasi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni jadallashtirish orqali davlat budjeti daromadlarini oshirishini ta'minlab borish bugungi global

¹ Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent, 2014. – 64 b.

inqiroz sharoitida o'zini ijobiy samarasini beradi. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini barqaror rivojlanishi soliq munosabatlari bilan bevosita bog'liqdir. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini soliqqa tortish, ular to'laydigan soliqlarning turlari va soliq mexanizmining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari mavzuning dolzarbligi ifodalaydi.

Ishining o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida olib borilayotgan soliq siyosatining aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni taniqli iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, J.Keyns, S.Bryu, A.Brizgalin, A.Laffer, K.Makkonel, V.Pushkaryova, I.Fisher, U.Sharp, Dj.Gitman, V.Rodionova, M.Romanovski, D.G.Chernik, T.Yutkina, I.Mayburov, I.Mironova, V.Panskov, S.Pepelyaev va boshqalar o'z asarlarida keng o'rganganlar.

Bitiruv malakaviy ishida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini soliqqa tortish jarayonida vujudga keladigan muammolar, amaldagi soliq siyosatini aksiyadorlik jamiyatlari moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirining ayrim jihatlarini o'rganish jarayonida respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.Malikov, O.Olimjonov, H.Sobirov, M.Sharifxo'jaev, V.Chjen, Sh.Shoxa'zamiy, D.Gazibekov, I.Butikov, M.Xamidulin, N.Haydarov, E.Gadoev, R.Karlibaeva, N.Po'latov va boshqa iqtisodchi-olimlarning ishlari ham muhim metodologik manba vazifasini bajardi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi – Iqtisodiy islohotlar sharoitida aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatini soliqqa tortish tizimining amaldagi holatini tahlil qilish va soliq mexanizmi samaradorligini oshirish masalalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- milliy iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan olib borilayotgan soliq siyosati, ular faoliyatini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;

- aksiyadorlik jamiyatlari to'laydigan umumdavlat soliqlarini hisoblash va byudjetga undirish mexanizmini tahlil qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari moliya-xo'jalik faoliyatida mahalliy soliqlar va yig'imlar hamda maqsadli jamg'armalarning ta'sirini baholash;
- aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati barqarorligini ta'minlashda ular faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish mexanizmi samaradorligini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining obyekti va predmeti. Aksiyaadorlik jamiyatlarini soliqqa tortish tizimi va soliq tizimining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirining amaldagi holati ishning ob'ekti hisoblanadi. Ishda "Shofirkon paxta tozalash" OAJ hisobot ma'lumotlaridan foydalanildi

Mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ijtimoiy takror ishlab chiqarish natijasida yaratilgan milliy daromadni soliqlar vositasida qayta taqsimlash bilan bog'liq pul munosabatlari ishning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiyoti va uslubiy asoslari. Mamlakatimiz makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi metodologik tamoyillar, xususan soliq tizimini takomillashtirishning hozirgi bosqichida aksiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortish jarayonlari bilan bog'liq iqtisodiy, nazariy va ilmiy manbalar olingan.

•Amalga oshirilgan izlanish va tahlillar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari hamda sohaga doir xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan chop etilgan adabiyotlar, monografiyalar va ilmiy tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy yangiligi va ahamiyati. Aksiyaadorlik jamiyatlari faoliyatini soliqqa tortish tizimini kompleks tahlil qilish va o'rganish asosida barqaror o'sish ko'rsatkichlarga erishish sharoitida soliq to'lovchilar moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda davlat byudjeti manfaatlariga mos keluvchi yo'nalishlarni belgilab beruvchi tavsiya hamda takliflar ishlab chiqildi.

Xulosalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari, soliqlar vositasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinib, aksiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ijobiy natijalarni mamlakatimiz soliq tizimiga tadbiq etishdan iborat.

Tadqiqot ishining tuzilish tarkibi. Mazkur ish kirish qismi, 8 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Aktsiyadorlik jamiyatlarini boshqarish va soliqqa tortishning ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Aktsiyadorlik jamiyatlarining korporativ siyosat yuritish mexanizmi

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ siyosat yuritish mexanizmini o'rganish uchun uni bir-biri bilan bog'langan quyidagi jihatlari asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

- mexanizmning iqtisodiy-xuquqiy asoslari;
- mexanizm tuzilmasi va tarkibiy qismlari;
- mexanizm funktsiyasi;
- mexanizmni harakatga keltiruvchilar;
- mexanizmning harakat algoritmi;
- mexanizmning amaliy natijalari va muammolari.

O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) korporativ boshqaruv siyosatining iqtisodiy-xuquqiy mexanizmi "Fuqarolik kodeksi", "Mehnat kodeksi", "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlariga va boshqa tegishli qonuniy-me'yoriy hujjatlarga hamda AJlarning Ustavi va ichki me'yoriy hujjatlariga asoslangan holda shakllangan.

Mexanizmning tuzilmaviy modeliuning tarkibiy qismlarini AJning boshqaruv organlari tashkil etadi. Bu organlar (ularning a'zolari) ushbu mexanizmni harakatga keltiruvchi kuchlar hisoblanadi. O'z navbatida boshqaruv

Aytilganlarni AJlarining korporativ boshqaruv siyosati modeli va boshqaruv organlari faoliyati asosida Qonun mazmunidan ko'rish mumkin. Bunda tahliliy materiallar sifatida Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining ilmiy ishi hisoboti natijalaridan foydalanilgan.³

Tahlil natijalari O'zbekistonda korporativ siyosat modeli va mexanizmini 1.1.1-rasmdagidek takomillashtirishni maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Bu borada bir va ikki pogonali hamda tarmoq modellari bilan hamohang bo'luvchi (ularni zinhor rad etmasdan) modelni qo'llash mumkin. Bunda: AUY – Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi (kompaniyaning eng oliy organi); DK – Direktorlar (ya'ni, kuzatuv) kengashi; DKR – Direktorlar kengashi raisi; TK – Taftish (reviziya) komissiyasi; TA – Tashqi (holis) auditor; IB – ichki baholovchi; P – kompaniya Prezidenti; B – Boshqaruv; IA – ichki auditor; KK – korporativ kotib (maslaxatchi); TM – Top-menejer (Bosh ijrochi direktor); ID – Ijroiya direktsiya; K – kreditorlar (kompaniyaning kredit manbalari); P – kompaniya partnyorlari (kompaniyaning ishlab chiqarish jarayoni doirasida shartnomalar bilan bog'langan sheriklari).

Korporativ kotib va ichki auditor DKR tavsiyasiga ko'ra AUY tomonidan tasdiqlanib, ular DKning ijrochi (yordamchi) apparati hisoblanadi va DKR (P) boshchiligida AUY tomonidan DK faoliyati uchun tasdiqlangan yillik budjet doirasidagi smeta asosida faoliyat ko'rsatadi. Bu budjetga asosan DKR (P) va DK a'zolariga mukofot puli tayinlanib, muntazam ravishda to'lanib boriladi.

DK va P kompaniyaning umumiy o'rta va uzoq muddatli strategiyasini yuritadi, TM esa o'zining DK tomonidan tasdiqlangan yillik biznes-reja asosida


³ "O'zbekistonda korporativ boshqaruvni joriy etish muammolari" mavzusida Iqtisodiy tadqiqotlar Markazi tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo'yicha hisobot (ishchi doklad), Toshkent, 2006 yil, www.cer.uz

konkret taktikasini amalga oshiradi. B kollegial organ sifatida kompaniyadagi korporativ siyosat taraflarining joriy davrdagi manfaatlarini o'zaro balanslashtirib boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Aktsiyadorlik jamiyati - bu jismoniy shaxslar kapitallarning birlashuvi bo'lib, u aktsiyalar chiqarish yo'li bilan bunyod etiladi. Aktsiyalar fond birjalarida muomalada bo'ladi - bir shaxsdan ikkinchisiga erkin o'tadi va aktsiyador uchun uning xissasi xakidagi xujjat hisoblanadi.

1.1.2- rasm

Aktsiyadorlik jamiyatlarni boshqarishning namunaviy tuzilmasi⁴



⁴A.S.Begmatov, M.B.Xamidulin, M.Sh.Bo'taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b.

Ustav fondi (ustav kapitali) aktsiyadorlarning aktsiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aktsiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aktsiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda jamiyat deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi.

Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida **hisob**ga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank **hisob**varaqlari ochishga haqlidir.

Jamiyat o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq firma nomiga ega bo'ladi va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishi mumkin.

Jamiyat o'zi chiqarayotgan aktsiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yo'li bilan qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ochiq obuna o'tkazishga haqli.

Jamiyat o'zi chiqarayotgan aktsiyalarga ularni xususiy joylashtirish yo'li bilan yopiq obuna o'tkazishga haqli, yopiq obuna o'tkazish imkoniyati qonun hujjatlarida va jamiyat ustavida cheklab qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Aktsiyadorlar o'zlariga tegishli aktsiyalarni boshqa aktsiyadorlarning va jamiyatning rozilgisiz o'zga shaxsga berishga haqli.

Agar aktsiyadorlarning soni ellik nafardan oshmasa, jamiyat ustavida:

ushbu jamiyatning boshqa aktsiyadorlari tomonidan sotilayotgan aktsiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narx bo'yicha va shartlar asosida, aktsiyadorlarning har biriga tegishli aktsiyalarning soniga mutanosib ravishda olish yuzasidan aktsiyadorlar uchun;

agar ushbu jamiyatning boshqa aktsiyadorlari o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmagan bo'lsa, jamiyatning aktsiyadorlari sotayotgan aktsiyalarni olish yuzasidan jamiyat uchun imtiyozli huquq nazarda tutilishi mumkin.

O'z aktsiyalarini sotayotgan aktsiyador aktsiyalarini sotish niyati to'g'risida boshqa aktsiyadorlarni aktsiyalarning narxini va uchinchi shaxsga taklif etish shartlarini ko'rsatgan holda to'g'ridan-to'g'ri yoxud jamiyat orqali yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Aktsiyadorlar sotayotgan aktsiyalarni olishga doir imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi va muddatlari jamiyat ustavida belgilanadi, bunda imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aktsiyalar sotuvga qo'yilgan paytdan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Aktsiyador tomonidan o'ziga tegishli aktsiyalar imtiyozli huquq buzilgan holda sotilgan taqdirda, jamiyatning istalgan aktsiyadori va (yoki) jamiyat bunday qoidabuzarlik to'g'risida aktsiyador yoki jamiyat bilgan yoxud bilishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran uch oy ichida o'ziga sotib oluvchining huquq va majburiyatlari o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Aktsiyalarni olishga bo'lgan ushbu imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir.

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

Jamiyat har yili aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aktsiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart.

Aktsiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aktsiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi,

jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi direktori, kollegial ijroiya organining a'zolari, ishonchli boshqaruvchi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, qonunchilikka muvofiq jamiyatning yillik hisoboti va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.


Aktsiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aktsiyadorlarga xabar berish tartibi, aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aktsiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.


Barcha oddiy aktsiyalar bitta aktsiyadorga tegishli bo'lgan jamiyatda aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi. Jamiyatning ustavi bilan aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aktsiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak, jamiyatning imtiyozli aktsiyalari qonunchilikka muvofiq ovoz berish huquqini olishlari mumkin.

1.1.3-rasm

Milliy korporativ boshqaruv modeli tuzilmasi⁵



⁵ A.S.Begmatov, M.B.Xamidulin, M.Sh.Bo'taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b.




Ishchining ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan devosita aloqasi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladi. Mustaqil sanoat korxonasi deganda, ishlab chiqarish texnik birlikka, tashkiliy-ma'muriy va xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lgan ishlab chiqarish birligini tushuniladi. Korxona o'z faoliyatini mustaqil uyushtiradi, mahsulot ishlab chiqarishni, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan keyin hosil bo'lgan foydani boshqaradi.

O'zbekistonda aktsiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilishning eng tarqalgan huquqchilik tashkiliy shakli, unda jamiyatni korporativ boshqarish va nazorat qilish tizimi to'liq ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:

Bunda uning asosiy elementlarini qo'yidagicha tavsiflash mumkin.

Aktsiyadorlar korporativ boshqaruv tizimining eng yuqori pog'onasidir. Ular biron-bir masalada ma'lumot olish uchun tizimning har qanday elementiga murojaat qilishlari mumkin, biroq o'z farmoyishlarini faqat aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi orqaligina beradilar. Alohida olingan har bir aktsiyadorga tizimning hech bir elementi shaxsan hisob bermaydi. Korporatsiya joriy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan aktsiyadorlar uchun kompaniyadagi ahvol haqida tezlik va osonlik bilan ma'lumot olish usuli muhimdir. Bunda ma'lumotlar manbaining ma'lum bir shaxsga bog'langanligi muhimdir – barcha ma'lumotlar bir qo'lda (tuzilmaga) jamlanishi va bir qo'ldan tarqatilishi kerak, toki manfaatdor shaxslar qaerdan ma'lumot olish mumkinligini bilsinlar.

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi korporatsiyani boshqarishning oliy organi bo'lib, investorlarga korporatsiyaning eng muhim masalalari bo'yicha qaror qabul qilishga imkoniyat beradi. Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi, aktsiyadorlar qo'lidagi yagona ta'sir qilish vositasi bo'lib, u barcha korporativ boshqaruv organlarini hosil qiladi va vakolatlar beradi, hamda ular faoliyati samaradorligini baholaydi. Biroq, umumiy yig'ilishni chaqirish, tayyorlash, o'tkazish va qabul qilingan qarorlarni rasmiylashtirishga korporatsiya kuzatuv kengashi, korporativ kotibi, sanoq komissiyasi va ijroiya organi javobgardir. Umumiy yig'ilishni tayyorlash va o'tkazish jarayonida qatnashayotgan korporativ boshqaruv a'zolari ularning manfaatlariga aloqador bo'lgan (bandlikning ta'minlanishi, faoliyatining moliyaviy shartlari, tanqidni oldini olish) kun tartibining shakllanishiga va qarorlarni qabul qilinishiga manfaatdor bo'lishlari mumkin. Shuning uchun, ular tomonidan aktsiyadorlar irodasiga (ochiqdan-ochiq emas, ko'proq yashirish tarzda)



qilishlarini kutish mumkin, va imkoniyatga egadirlar, chunki yig'ilish o'tkazilishining asosiy ular belgilaydilar. munosabatlari sharoitida etuvchi shaxs rovida bo'ladi. davlat ro'yxatidan o'tishi tadbirkorlik faoliyatiga ega bo'ladi. Bunda xaq alohida fuqaro, xaq fuqarolar birlashmasi tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bo'lishi mumkin.

1.1.4-rasm

Aktsiyadorlik jamiyatlarda rejalashtirish jarayoni⁶

⁶ A.S.Begmatov, M.B.Xamidulin, M.Sh.Bo'taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b.

Shunday qilib, korxona – bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va foyda olish maqsadida, tadbirkor yoki tadbirkorlar birlashmasi tomonidan mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmat ko'rsatish uchun yaratgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Yuqorida aytib o'tilganidek, korxona faoliyatining maqsadi – ijtimoiy ehtiyojni qondirish va foyda olishdir.

Taraqqiy etgan bozor munosabatlari sharoitida ikkala maqsadni oqilona birga olib borishni talab qiladi.

1.2. Aktsiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortishning nazariy va huquqiy asoslari

Soliqlar va soliq munosabatlari muammosi mamlaktimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Bugingi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozaralarga sabab bo'layotgan, isloh qilish bo'yicha tahlil obyekti va qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'layotgan soliqlardan bo'lak islohotlarning boshqa bir yo'nalishi yo'q. Boshqa bir tomondan esa soliq tizimi bozor munosabatlarining eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liq. Prezident Islom Karimov tomonidan, «avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani-fiskal, qayta taqsimlash va rag'batlantirish

vazifasini to'la darajada bajarishi kerak»,⁷ deya e'tirof etilgan. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda yaratilgan soliq tizimini keskin (tubdan) qayta o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Bunday hollarda faqat bir daqiqalik samarani (qaytimni) hisobga olmasdan, balki bu takliflarning mamlakat iqtisodiyoti va moliyasining barcha tomonlariga qay darajada ta'sir etishi albatta inobatga olinmog'i lozim.⁸

Foyda bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, tadbirkorlar faoliyatini asoslaydi. "Foyda" kategoriyasining mazmunini uning manbalari, omillari va iqtisodiy sub'ektlarning samarali ishlab chiqarish faoliyati maqsadlarini to'liq aks ettirgan holda tadqiq etish turli iqtisod maktablarida olib borilgan va foyda nazariyalari ishlab chiqilgan. Iqtisodiy fikrning rivojlanib borishi bilan "foyda" tushunchasining ta'rifi murakkablashib bordi. Jamiyatda savdo kapitali ustunlik qilgan davrda foyda pullarning sotuv va amalga oshirilgan xarajatlar o'rtasidagi farqi sifatida qaraldi. Erta kapitalizm davrida tadbirkorlar foydani kiritilgan kapital va olingan kapital o'rtasidagi farq sifatida belgiladilar. Ular faoliyatining maqsadi ishlab chiqarilgan tovarlarni sotishdan tushgan tushumlar va amalga oshirilgan xarajatlar o'rtasida eng yuqori miqdorda ijobiy farqqa erishish edi.

Foyda nazariyasi evolyutsiyasida XX asr iqtisodiy fanida quyidagi asosiy nazariyalarni ajratish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi kapital (foyda – har qanday ishlab chiqarishning zarur omili sifatidagi kapital natijasidir);
- o'zini cheklash, bu erda foyda – korxona mulkdorining o'z kapitalini shaxsiy iste'mol qilishni to'xtatib turishi, ishlab chiqarishga kiritilgan mablag'lardan samarani kutishdagi muayyan tavakkalchiligi uchun mukofoti;
- foyda barcha turdagi tadbirkorlik faoliyatidan mehnat daromadi sifatida;
- foyda monopoliyaning mavjudligi natijasi sifatida.

⁷Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. 358-b.

⁸T.S.Malikov, P.T.Jalilov. Byudjet-soliq siyosati, - T.: "Akademnashr" 2011 y. 154-b.

Foydaning kelib chiqishi haqidagi ta'limotlarni umumlashtirib, frantsuz iqtisodchisi A.Babo uni yuzaga kelishining quyidagi sabablarini ko'rsatadi⁹:

Tashabbuskorlik tufayli ishlab topilgan foyda (uning asosini quyidagi omillar tashkil qilishi mumkin: innovatsiyalarni joriy etish, tavakkalchilikdan qo'rqmaslik, ishlab chiqarish ko'lamlarini tejashdan olingan mablag'lardan oqilona foydalanish, qarzdorlikka nisbatan uzoqni ko'zlaydigan siyosat yuritish);

Qulay vaziyatlarda olingan foyda (yoki, mohiyatan noqulay sharoitlar tufayli zarar ko'rilishini bildiradi). Uni paydo blishining asosiy omillari ishlab chiqarish faoliyatining xarakteri, bozor tuzilmasi, mavjud umumxo'jalik konyunkturasi, inflyatsiya ta'siridir;

Jamoat institutlari tomonidan tan olinishi tufayli olinishi mumkin bo'lgan foyda, bunday institutlar ichida davlat hokimiyati organlari muhim rol o'ynaydi ("yo'l qo'yiladigan foyda"). "yo'l qo'yiladigan foyda" deganda jamoat institutlarining xo'jalik sub'ektlari ishiga aralashuvi natijasi tushuniladi, ya'ni uning paydo bo'lishi iqtisodiy omillarga qaraganda birorta jamoat instituti qarori yoki turli institutlar o'rtasidagi shartnomaga ko'proq bog'liq. Institutlar deganda davlat, kompaniyalar, kasaba uyushmalari, tadbirkorlar uyushmasi va h.k.lar tushuniladi.

Xo'jalik sub'ektining faoliyat yuritishi natijasi sifatida foyda paydo bo'lishining asosiy sabablari tadbirkorga bog'liq bo'lishi ham, bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. tadbirkorga bog'liq sabablarga tavakkalchilik, innovatsiyalar, ishlab chiqarish ko'lamlarini kiritish mumkin. unga bog'liq bo'lmagan sabablar – bozor konyunkturasi, inflyatsiya.

Foyda paydo bo'lishining yuqorida sanab o'tilgan sabablaridan birortasi ham iqtisodiy voqelikda sof holda uchramaydi. Aksariyat holatlarda foydaning paydo bo'lishi jarayoniga bir vaqtning o'zida bir nechta sabablar

⁹ Babo A. Pribil. Per. s fr./Obshch.red. i koment. V.I.Kuznetsova.- M.: Izdateskaya gruppa «Progress», «Univers», 2003 g. S.178.

ta'sir qiladi, bu esa foydaning ko'plab ta'riflari mavjudligi va ko'plab funktsiyalarni bajarishini tasdiqlaydi.

Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish omillarini (mehnat, kapital, tabiiy resurslar) birlashtirish natijasida jamiyatning moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadining taqsimlanmagan shaklidan iborat.

Jamiyatning barcha moliyaviy resurslari negizini yalpi (umumiy) ijtimoiy mahsulot tashkil qiladi. U muayyan vaqt davrida jamiyat tomonidan yaratilgan barcha boyliklar qiymatidan iborat. Agar yalpi ijtimoiy mahsulotdan uni tayyorlashga ketgan vositalarni, ishlab chiqarish vositalarini qoplashga ketgan mablag'larni chegirib tashlasak, jamiyatning sof foydasi qoladi. Statistikada jamiyatning sof foydasi milliy daromad nomini olgan. Milliy daromad – mamlakatning muayyan davr ichida moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida qayta yaratilgan qiymatdir. Sof daromad ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning manbai sifatida – bu milliy daromadning qo'shimcha qiymat ko'rinishidagi shunday qismiki, u insonlar jamiyatining muayyan rivojlanish bosqichida, jamiyatning mavjud bo'lishiga kerak bo'lganidan ham ko'proq boyliklar yaratish imkoniyati yaratilgan paytda paydo bo'lgan.

Ijtimoiy mahsulotni taqsimlash jarayoni davlatning o'z funktsiyalarini bajarishi va kapitallar, investitsiyalar hamda jamg'armalarning samaradorligini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi. Byudjet, moliya, kredit va sug'urta institutlari ta'sirida ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish va qayta taqsimlash jarayonining barcha ishtirokchilari daromadi tugal shakllanadi, sof daromad esa quyidagi shakllarni kasb etadi:

- fuqarolarning sof daromadi (soliqlar to'langan keyin mehnatga haq to'lash, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar va uy xo'jaliklaridan keladigan boshqa daromadlar);

tashkilotlarning sof daromadi (soliqlar to'langandan keyingi foyda, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar va boshqa daromadlar);

davlatning sof daromadi.

Fuqarolarning sof daromadi va davlat daromadlari mustaqil tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bizning tadqiqot doirasida ular korxoaning yalpi foydasini taqsimlash yo'nalishlari sifatidagina qarab chiqiladi.

Shunday qilib, xo'jalik amaliyotida korxona foydasi jamiyat sof daromadining bir qismidir. O'z hajmlari va dinamikasi bilan u mazkur korxonaning jamiyat qo'shimcha mahsulotini ishlab chiqarishdagi ulushini aks ettiradi.

Iqtisodiy fanda foydaning tabiatini tushuntirishga turli xil uslubiy yondashuvlar qaror topdi. Hozirgi paytda mavjud nazariyalarni shartli ravishda miqdoriy va sifatli nazariyalarga ajratish mumkin. Sifat nazariyalari foydaning iqtisodiy tabiatini hamda uning takror ishlab chiqarish jarayonidagi rolini o'rganadi. Miqdoriy nazariyalar foydani uning o'lchamlari, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'et uchun ahamiyatligi nuqtai nazaridan qaraydi.

Korxonaning barcha xarajatlarini aniq va ko'rinmas(yashirin) xarajatlarga bo'lish mumkin. Aniq xarajatlar mazkur korxonaning resurs ta'minotchilariga to'lanadigan xarajatlaridir, shu bilan birga korxona egasi o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan ham foydalanishi mumkin (masalan, mulkdorning tadbirkorlik qobiliyati yoki o'z binosidan ijara haqisiz foydalanish). Foydani aniqlashda avvalambor aniq xarajatlar hisobga olinadi va buxgalteriya foydasi hisoblanadi. Undan ko'rinmas xarajatlar chegirilsa, iqtisodiy foydaga ega bo'lamiz.

Iqtisodiy foydani ta'riflashga turli uslubiy yondashuvlar tushumlar tarkibiga, aniq va ko'rinmas(yashirin) xarajatlarga, tushumlar va chiqimlar elementlarini baholash usullariga va h.k.larga asoslanadi. Foydani hisoblab chiqarishga bog'liq turli xil muammolarning tahlili foydani hisoblab chiqarish metodologiyasi shartli tusga ega, buxgalteriya hisobida olingan foyda bilan iqtisodiy foyda o'rtasida uzilish mavjud, degan xulosaga olib keladi.

Fikrimizcha, "foyda" kategoriyasini belgilashda "haqiqiy iqtisodiy foyda" va "nominal iqtisodiy foyda" tushunchalarini ajratish zarur.

Iqtisodiy foyda deganda korxonaning hisobot davridagi iqtisodiy qiymati o'sishi tushuniladi. Iqtisodiy foydani aniqlash uchun mulkdorlarning kapitali bozor narxlarida baholanishi lozim, ammo bu usulni faqat aktsiyalari bozorda talabga ega firmalarga nisbatan qo'llash mumkin. Davrning boshi va oxiridagi aktsiyalar qiymati orasidagi farq mulkdorlar foydasini tashkil qiladi, u kompaniyaning foydasi hamdir. Bunday talqinni amalda buxgalteriya hisobi qoidalari va protseduralarini hisobga olgan holda qo'llashda qator baxsli jihatlar yuzaga keladi. Ular qaralayotgan kategoriyaning mazmun-mohiyatiga oid belgilarga ham, foydaning har qanday tarkibiy qismini haqqoniy miqdoriy baholash imkoniyatiga ham tegishli.

Buxgalteriya foydasi — tashkilotning daromadlari (uning aktivlari umumiy qiymatining oshishi) va uning xarajatlari (aktivlarning jami qiymatining pasayishi va ayni paytda mulkdor kapitalining kamayishi, bu kapitalni maqsadli o'zgartirishga bog'liq operatsiyalar natijalari bundan mustasno) o'rtasidagi ijobiy farqdir. O'z kapitalini maqsadli o'zgartirishga bog'liq operatsiyalarga mulkdorlarning qo'shimcha kiritmalari, qo'shimcha emissiya, hayriyalar, beg'araz moliyalashtirish va h.k.lar kiradi. Buxgalteriya foydasi ko'rsatkichi kamchiliklardan holi emas: turli mamlakatlar buxgalteriya standartlarida daromadlar va xarajatlar tarkibini belgilashda turli yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ko'zda tutilgan, shuning uchun turli korxonalar tomonidan hisoblab chiqilgan foyda ko'rsatkichlarini bir-biriga solishtirib bo'lmasligi mumkin; narxlar umumiy darajasining o'zgarishi (inflyatsion tarkib) turli hisobot davrlar uchun foyda haqidagi ma'lumotlarni solishtirishni cheklaydi.

Har ikkala ko'rib chiqilgan ta'riflardan foydalanish mumkin, ammo amaliy nuqtai nazardan ikkinchisi ko'proq afzallikka ega.

“Foyda” kategoriyasiga ta'rif berishga yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlari etarlicha mantiqiy bo'lib, umuman olganda bir-birini inkor etmaydi. Xususan, korxona joriy (bozor) narxlarida hisob-kitob yuritganda (buxgalteriya hisobi tamoyillariga muvofiq) va aktivlar va passivlarda

o'zgarishlarni moliyaviy natijalar schetlari orqali aks ettirganda, ajratib qo'yilgan daromadni darhol foyda sifatida e'tirof etish mumkin edi.


Buxgalterlar va iqtisodchilarning foyda haqidagi tasavvurlaridagi farqlarga qaramay, tashkilotlar moliyaviy hisobotlarida buxgalteriya (hisob-kitob) foydasi ko'rsatkichlari aks ettiriladi, ular prognozlash va qarorlar qabul qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Foydani tashkilotlarning moliyaviy hisobotida aks ettirish tadiiitotning keyingi qismlarida chuqurroq tadqiq qilinadi.


Foyda xo'jalik yuritishning birinchi bo'g'ini daromadidir, keyinchalik u turli ehtiyojlarga, jumladan davlat oldidagi majburiyatlarni bajarishga sarflanadi.

Daromadlar tarkibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi va "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida aniqlanadi va quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

1.2.1-rasm

Korxonalar faoliyatida moliyaviy natijalarning shakllanishi¹⁰





Foyda solig'i soliq solish ob'ektini aniqlashni quydagi formula ko'rinishida olib kelish mumkin:

Jami daromadga mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum, boshqa operatsion daromadlar va moliyaviy faoliyatdan daromadlar.

Ma'lumki, soliqlar birinchi navbatda moliyaviy-iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ma'lum vaqt mobaynida jamiyatda yaratilgan mahsulotlar va xizmatlarning qiymati yalpi ijtimoiy mahsulotni (YaIM) ifodalaydi. O'z navbatida YaIM ishlab chiqarish uchun iste'mol qilingan materiallar qiymati (s), ish haqi sarflari (v) va foyda (m) dan iborat. Bundan ish haqi va foyda (v + m) yalpi milliy daromadni (MD) ifodalaydi. YaIM va MD o'zining harakati jarayonida to'rt bosqichni bosib o'tadi. Ular ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol.

YaIMni taqsimlash natijasida uning bir qismi davlat byudjetiga yo'naltiriladi. Bunda shuni alohida ta'kidlash lozimki, YaIMni birlamchi taqsimlash jarayoni davlatning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Davlat esa o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun YaIM ni qayta taqsimlash jarayonida ishtirok etadi. YaIM ni qayta taqsimlashning asosiy usuli davlat o'zining markazlashgan moliyaviy resurslarini (byudjetini) shakllantirish uchun uning bir qismini to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetiga yo'naltiradi. Bu jarayonda soliqlarni moliyaviy-iqtisodiy

mohiyati namoyon bo'ladi. Bunda qayta taqsimlashning davlat tomonidan amalga oshirilgan qismi soliq to'lovlari hisoblanadi va YaIM qiymati bilan bevosita bog'liq bo'ladi¹¹.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarining bir ko'rinishi bo'lib, uning yagona manbai emas. Fikrimizni ifodalash uchun O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksiga murojaat etamiz. Unga muvofiq davlat byudjeti daromadlariga quyidagilar kiradi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.¹².

Davlat o'z funktsiyalarini amalga oshirir ekan, bu funktsiyalar ma'lum miqdordagi moliyaviy resurslarni talab etadi. Mana shu moliyaviy resurslarning asosiy qismi soliqlar orqali shakllantiriladi. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tish kabi katta tarixiy jarayonni boshidan kechirmoqda. Bozor iqtisodiyoti nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatimiz tarixiy taqdiri bilan bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida barcha sohani qamrab olmoqda va keng ildiz otib bormoqda. Bunda soliqlarning roli yanada muhimroq hisoblanadi.

1.3. Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasi

Foydani soliqqa tortishning xorij tajribasini o'rganish maqsadida Rossiya Federatsiyasi tajribasidan boshlaymiz. Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25 bo'limi amalga kirishi munosabati bilan, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar

¹¹ Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O'quv qo'llanma. -T.: 2003. 54-bet

¹² O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil 26 dekabr. //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2003 yil 31 dekabr 52(1) son.

daromadini soliqqa tortishni huquqiy asosi yuzaga keldi. Ushbu kodeksiga muvofiq daromadlar va unda nazarga tutilgan xarajatlar o'rtasidagi ijobiy farq soliqqa tortiladi.

Ushbu davlat qonunchiligiga muvofiq xarajatlarni hisobga olishning bosh omili bo'lib bu xarajatlarning daromad olishga qaratilganligi hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini hisoblash metodlarini tanlash huquqiga ega. Ular tomonidan mustaqil hisob siyosati olib boriladi va belgilangan tartibda «kassa metodi» va «hisoblash metodi» laridan foydalangan holda amalga oshiradi. Daromad solig'ini hisoblashchda korxonalar tomonidan xatoliklarni oldini olish maqsadida Rossiyada «soliq agenti» degan tushuncha kiritilgan.

Daromad solig'ining soliq to'lovchilar¹³ bo'lib, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar, Rossiya Federatsiyasida doimiy vakolatxonasi orqali faoliyat yurituvchi va (yoki) Rossiya Federatsiyasi manbalaridan daromad oluvchi xorijiy korxonalar hisoblanadilar.

Soliq kodeksiga muvofiq daromad va xarajatlar 2 turga ajratilgan: mahsulot (ish,xizmat)larni sotish bilan bog'liq va sotish bilan bog'liq bo'lmagan daromad va xarajatlar.

Xarajatlar - hujjatli tasdiqlangan va asoslangan bo'lishi lozim va (yoki) RF SK 265 moddasiga nazarga tutilgan bo'lishi lozim.¹⁴

Ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar:

1. moddiy xarajatlar;
2. mehnat haqiga xarajatlar;
3. amortizatsiya ajratmalari;
4. boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar:

¹³ O.A Krasnoperova Kommentariy k glave 25 Nalogovogo kodeksa RF. «Nalog na pribil organizatsiy» izd. «Prospekt» Moskva 2002 yil str4-5.

¹⁴ Nalogovoe pravo/ Pod red. A.A.Tedeev Moskva «Eksmo» 2004 str. 615-616

1. Tayyorlash (ishlab chiqarish), saqlash va mahsulotlarni etkazish, ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatish, mahsulot(ish, xizmat, mulkiy huquq) qabul qilish va (yoki) sotish texnologik xarajatlar ;

2. vositalardan ishlash holatini saqlash, asosiy vosita va boshqa mulklarga texnik xizmat va remont ishlari, shu jumladan soz holda saqlash bilan bog'liq bo'lgan;

3. tabiiy resurslarni o'zlashtirishga qaratilgan;

4. ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlariga bog'liq bo'lgan;

5. majburiy va ixtiyoriy sug'urtalashga bog'liq bo'lgan;

6. boshqa xarajatlar, shu jumladan Rossiya Federatsiyasining soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblangan soliqlar.

Tovarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy xarajatlarni aniqlashda, xom-ashyo va materiallar hisobdan chiqarish miqdori, korxona tomonidan soliqqa tortish maqsadida qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq quydagi metodlar orqali amalga oshiradi¹⁵:

- Zaxiraning bir birligining tannarxi bo'yicha;
- O'rtacha tannarx bo'yicha;
- Qabul qilingan materiallarning birinchidan boshlab ketma-ket tannarxini bo'yicha (FIFO)
- Qabul qilingan materiallarning oxiridan boshlab ketma-ket tannarxini bo'yicha (LIFO)

Bularning oqibatlari:

Inflyatsiya sharoitida FIFO usulini qo'llash mahsulot tannarxini pasayishini ta'minlaydi. LIFO usulini qo'llashda mahsulot tannarxini pasayishiga (bu foyda solig'iga ta'sir qiladi), tovar moddiy boylikning narxini pasti qolganligi sababli mol-mulk solig'i kam undiriladi. (RF qonunchiligiga muvofiq tovar moddiy zaxiralardan ham mol-mulk solig'i undiriladi).

Rossiyada soliq to'lovchi buxgalteriya hisobida soliqqa tortishda boshqa usuldan foydalanishi mumkin. Natijada soliq kam hisoblanadigan usulni qo'llash

¹⁵ Nalogovoe pravo/ Pod red. A.A.Tedeev Nalogovoe pravo Moskva «Eksmo» 2004 str 620

mumkin. Bunday hollarni oldini olish maqsadida AQSh-da buxgalteriya hisobi va soliq hisobiga ham bir xil usul qo'llash qat'iy belgilangan. LIFO usulni qo'llayotganda tovar moddiy zaxiralarni kamaytirmaslik yoki tugatilmaslik maqul chunki foyda solig'i bazasi oshadi. AQShda materiallar chiqimini usulini o'zgartirish uchun soliq xizmatidan ruxsat olinadi¹⁶.

Ayrim xarajatlar maxsus tartib bo'yicha hisobdan chiqarish amalga oshiriladi. Sug'urta bo'yicha xarajatlar soliq majburiyatlarini hisob-kitob metodlaridan qat'iy nazar faqatgina ular ko'chirilganda nazarga olinadi.

Rossiya Federatsiyasi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarga muvofiq nomoddiy aktivlarning foydalanish davri aniq bo'lmagan taqdirda 20 yil (korxona faoliyatidan ortiq bo'lmagan davrda) belgilash mumkinligi belgilangan, lekin soliq kodeksida ushbu muddat 10 yil belgilangan¹⁷.

Normalangan xarajatlar tarkibiga quydagilar kiradi:

- majburiy sug'urta xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- reklamaga qilingan xarajat qismi;
- ko'zga tutilmagan qarzar uchun xarajatlar rezervini shakllantirish
- zayomlarga foiz to'lovlari.

Daromadlar olingan hisobot davrida hisobga olinadi.

Agarda soliq to'lovchilarning amalga oshirilgan xarajatlari to'g'ridan to'g'ri faoliyat aniq bir turiga mansubligi aniqlab bo'lmasa u holda faoliyat turlaridan olingan daromadlarga proportsional ravishda xarajatlar taqsimlanadi.

Rossiya qonunchiligi bo'yicha quydagi tushunchalar kiritilgan: «bilvosita xarajatlar» (ularning amalga oshirilgan davrida tan olinadi) va «to'g'ridan to'g'ri xarajatlar» (maxsus tartib bo'yicha hisoblanadi).

Daromad solig'i bazasi bo'lib soliq solinadigan pul shaklidagi daromad hisoblanadi. Shu bilan birga soliq solish bazasi turli stavkalar bilan soliqqa tortiladi.

¹⁶ S.M. Djarbekov «Metodi i sxemi optimizatsii nalogoblojenie» 2-e izdanie Moskva MTsFER 2004 str 98-99

¹⁷ Nalogovoe pravo/ Pod red. A.A.Tedeev Nalogovoe pravo Moskva «Eksmo» 2004 str 630

Soliq kodeksining 25-bo'limiga muvofiq soliq to'lovchi daromad va xarajatlari pul shaklida «bozor narxi» asosida amalga oshiriladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda o'sib boruvchi yakun bilan soliq davrining boshidan hisobga olinadi.

2002 yil 1 yanvardan korxonalar daromad solig'i bo'yicha imtiyozlari bekor qilingan, faqatgina oldin qabul qilingan ma'lum muddatdagi imtiyozlar qoldirgan:

kichik korxonalar bo'yicha qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi, xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchi va boshqalar;

maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy dasturni xarakatining tugashiga qadar,

Zararlarni 10 yilgacha oldinga, ma'lum miqdorida har bir soliq davriga hisobdan chiqarish ruxsat etilgan.

Daromad solig'i bo'yicha soliq stavkasi. 5foiz - federal byudjetga, 13 foizdan 17foiz gacha regional byudjetlarga, 2foiz mahalliy byudjetga. Soliq kodeksida turli daromad turlariga turlicha stavkalarni qo'llash nazarga tutilgan.

Xususan, xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasidagi doimiy vakolatxonalari orqali faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlari uchun soliq stavkalari quydagicha:

1) turli daromadlar, dividend yoki qarz majburiyatlari bo'yicha olingan daromadlardan tashqari 20 foizli stavkada.

2) Xalqaro yuk tashish xizmatini ko'rsatish bo'yicha daryo kemalari, samolyotlar yoki boshqa harakatlanuvchi transport vositalari yoki konteynerlar (shu jumladan transportirovka uchun kerak trelerlar va vositachi qurilmalar)ni foydalanish saqlash yoki arendaga berish 10 foizli stavka bo'yicha;

Divident shaklida olingan daromad bo'yicha, soliq solish bazasiga quydagi stavkalar qo'llaniladi:

1. Rossiya Federatsiyasining rezidenti bo'lgan, Rossiya korxonalari va jismoniy shaxslari Rossiya tashkilotlaridan olgan dividend shaklidagi daromadlari 6 foizli stavkada;

2. Divident shaklida Rossiya tashkilotlaridan xorijiy tashkilotlari olgan daromadi, shu jumladan Rossiya tashkilotlari xorijiy tashkilotlardan olgan dividendlari 15 foizli stavkada soliqqa tortiladi.

Daromad solig'i soliq davri mazkur soliq bo'yicha kalendar yili hisoblanadi. Hisobot davri –kvartal, yarimyillik, 9-oylik, yillik.

Soliqni to'lash muddatlari. Soliq summasi soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda soliq va buxgalteriya hisobi asosida hisoblab chiqariladi. Soliq davri davomida avans to'lovlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar byudjetga hisobot davrida olingan daromadi va soliq stavkasiga asosan hisoblanadi. Byudjetga avans to'lovlari har oyning 15 sanasidan kechiqmagan holda amalga oshiriladi. Bunda joriy kvartal uchun avans summasi o'tgan chorak soliq summasining uchdan bir qismi miqdorida yoki haqiqatda oy davomida olingan daromad summasidan kelib chiqib amalga oshiradi.

XX asr 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarning boshlarida dunyoning AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Shvetsiya va boshqa bir qator etakchi mamlakatlari kapital jamg'arilishini tezlashtirishga va ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq islohotlarini amalga oshirdilar. Ana shu maqsadlar uchun korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning stavkasi birmuncha pasaytirildi. Masalan, AQShda korporatsion soliqning stavkasi 46 foizdan 34 foizgacha pasaytirildi; Buyuk Britaniyada - 45 foizdan 35 foizgacha, so'ng esa 30 foizgacha, Frantsiyada - 1986 yilda 50 foizdan 45 foizgacha, 1991 yilda 42 foizgacha, so'ng esa 33.5 foizgacha; Yaponiyada - 1989 yilda 42 foizdan 37 foizgacha (prefektura va mahalliy soliqlarni hisobga olgan holda). 1994 yilda Daniyada soliq islohotini sekin-astalik bilan amalga oshirish boshlandi. Parallel ravishda bu mamlakatlarda jismoniy shaxslar shaxsiy daromadlarini soliqqa tortishning yuqori darajasi pasaytirildi va soliqqa tortilmaydigan daromadning intervallari kengaytirildi.

So'nggi yillarda, dunyo mamlakatlari tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan daromad (foyda) solig'i (ya'ni korporatsiyalar daromad solig'i)ning stavkalarini keltirib o'tamiz.

O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab, rivojlangan davlatlarda foydani soliqqa tortish buyicha oldingi yondashuv – foydaning yuqori stavkasi amal qilgan xolda, keng miqyosda soliq imtiyozlari tizimidan foydalanish o'rniga pasaytirilgan soliq stavkasi bilan birga qisqartirilgan soliq imtiyozlari tizimi amal qila boshladi.

Xususan, AQSh davlat byudjetida yirik soliqlaridan biri bu - korporatsiya solig'i hisoblanadi. Barcha korporatsiyalar tabaqalashtirilgan stavkalarda soliq to'laydi. Korporatsiyalarga solinadagan daromad solig'i 1909 yilda joriy qilingan bo'lib, o'sha yili uning qiymati atigi 1 foizni tashkil qilgan edi. Urushlar davrida esa korporatsiyalardan olinadigan soliq stavkasi ko'tarildi. Jumladan, birinchi jahon urushi davri u korxonaning umumiy daromadidan 12 foizni, ikkinchi jahon urushida 40 foizni tashkil qilgan. Koreya urushi davrida esa Amerika korporatsiyalariga solinadagan daromad solig'i 52 foizgacha ko'tarilib ketgan. 1979 yilda mazkur soliq 46 foiz qilib belgilandi. Hozirgi kunda ushbu soliq stavkasi 34 foiz ni tashkil etmoqda.

Xususan Buyuk Britaniyada ushbu korxonalarni soliqqa tortishda esa ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, moliya yilida olgan daromadlariga qarab soliqqa tortish joriy etilgan. Ya'ni ularning yillik daromadlari 300000 funt sterlingni tashkil etsagina, imtiyozli 0 foizdan 19 foizgacha bo'lgan stavka asosida korporatsiyalar daromad solig'ini to'laydilar.

1.3.1-jadval

Buyuk Britaniyadagi korporatsiyalar daromad solig'i stavkalari¹⁸

Korxonalarning olgan daromadi (D)	Hududiy soliq stavkasi (foiz)	Asosiy (o'rtacha) soliq stavkasi (foiz)
D < 10000 F.St.	0	0
10001 <D< 50000 F.St.	23.75	10-19
50001 <D< 300000 F.St.	19	19
300001 <D<1500000 F.St.	32.75	19-30
D>1500001 F.St.	30	30

¹⁸ www.btax.com sayti ma'lumotlari

Yuqoridagi ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, agar mikrofirma yoki kichik korxona yil davomida 10000 funt sterlingdan kam daromad olsa, u holda olgan daromadi soliqqa tortilmaydi, balki, uning daromadlari to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarishni ya'ni o'z faoliyatini kengaytirishga yo'naltiriladi. Yoki korxonaning yillik daromadi 25000 funt sterlingni tashkil etsa, u holda qonunchilikka muvofiq chegirmalar (maxsus ishlab chiqarash fondiga va boshqa fondlarga ajratmalar) chegirib qolgan daromaddan 19 foiz va qo'shimcha 5 foiz hududiy stavka asosida soliqqa tortiladi. (qo'shimcha hududiy stavkaning miqdori 5 foizdan oshmaydi.) Shuni alohida ta'kidlash joizki, mikrofirma yoki kichik korxonaning yillik daromadi ko'pi bilan 300000 funt sterlingni tashkil etishi mumkin. Ya'ni iqtisodchi ekspertlar belgilangan mezonlar asosida yil davomida olinishi mumkin bo'lgan daromadlardan kelib chiqib, soliqqa tortishning mezonini o'rnatganlar. Agar mikrofirma kichik korxonaning daromadi 300000 funt sterlingdan ortsa, amaldagi qonunchilikka muvofiq standart 30 foizli stavka va qo'shimcha huddudiy stavka asosida soliqqa tortiladilar.

Kichik firmalarning barcha asosiy vositalar ishlab chiqarish mol-mulk solig'idan butunlay ozod qilinadi. Ularga mahalliy soliqlarini to'lashda ularga imtiyozlar beriladi, bu esa likvidlik muammosini qisman hal etishga yordam beradi. Korxonalarni ajratish davrida yana bir muhim omilga ahamiyat beriladi, bu o'z navbatida korxonalarni katta yoki kichikligini (mezonini) belgilab beradi. Ushbu omil o'tgan moliya yili davomida, korxona tomonidan olingan umumiy daromad hisoblanadi.

Korxonalarga berilgan imtiyozlarga muvofiq, ular moliya yilida daromadlari bo'yicha bir marotaba hisobot taqdim etadilar. Odatda korxonalar, yilning oxirgi choragi davomida belgilangan soliq to'lovlarini amalga oshiradilar va hisoblangan soliq summalarini davlat byudjetiga o'tkazib beradilar. Buyuk Britaniyada ro'yxatdan o'tgan har bir mikrofirma va kichik korxonalar, boshqa soliq to'lovchi korxonalar faqat bir soliq turini, korporatsiyalar daromad solig'ini to'laydilar va ushbu soliq stavkasi moliyaviy yili davomida bir marotaba belgilanadi.

Jahon amaliyotida qo'llaniladigan soliq imtiyozlarini tizimlashtirish qiyin, chunki ular davlat tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdan, alohida iqtisodiyot tarmoqlarini, mintaqani, faoliyat turini rag'batlantirishdan manfaatdor bo'lganda belgilanadi. U yoki bu imtiyozlarni berar ekan, davlat iqtisodiy jarayonlarga soliqlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Soliq imtiyozlarini berishning shakl va usullari doim rivojlanib bormoqda. Eng ko'p uchraydigan imtiyozlarga muayyan faoliyat turini (yoki bu faoliyatdan daromadni) to'liq yoki qisman soliqdan ozod qilish; to'lovlar muddatini kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish va h.k.lar kiradi.

Imtiyozlarning asosiy turlarini batafsil ko'rib chiqamiz. Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda alohida imtiyoz – tezlashtirilgan amortizatsiya amal qiladi. Amortizatsiya hisoblashning asosiy maqsadi pul mablag'larini chiqib ketayotgan kapital aktivlarni tiklash yoki almashtirishdan iborat. Amortizatsiya to'lovlari me'yorlari qonunchilik yo'li bilan belgilanadi va ular kapital aktivlarning xizmat muddati o'tgandan keyin ularni to'liq almashtirilishini ta'minlashi kerak. Amaliyotda tezlashtirilgan amortizatsiya usullaridan foydalanishga ruxsat beriladi, bunda birinchi xizmat yillarida oldingilariga nisbatan kattaroq summalar hisobdan chiqariladi. Bunday usullarni qo'llash korxonalarga aktivlar xizmat muddati tugashidan ancha oldin o'z xarajatlarini qoplash, soliq solinadigan foydani kamaytirish va bu bilan foyda solig'ini kamaytirish imkonini beradi.

Asosiy vositalar (binolar, mashinalar, jihozlar), nomoddiy aktivlar (patentlar, savdo markalari, mualliflik huquqlari va h.k.) amortizatsiya qilinadi. Faqat er uchastkalari amortizatsiya qilinmaydi, ammo foydali qazilmalar konlarini o'zlashtirish bo'yicha xarajatlarni soliq solinadigan foydani kamaytirish uchun hisobdan chiqarishga ruxsat beriladi.

Amortizatsiya to'lovlarining yillik summalarini hisoblashda “umr muddati” degan tushunchadan foydalaniladi (mazkur vositani mazkur ishlab chiqarish sohasida qo'llashning iqtisodiy asoslangan muddati). Bu muddat shuningdek amortizatsiya davri deb ham ataladi, u nafaqat jismoniy emas, balki ma'naviy eskirishni ham hisobga oladi.

Amortizatsiya hisoblashning turli usullari bor, ammo ularning asosiylari quyidagilar: to'g'ri chiziqli hisobdan chiqarish usuli, ishlab chiqarish usuli, yillar yig'indisi usuli, pasayadigan balans qiymat usuli. Oxirgi ikki usul tezlashtirilgan amortizatsiya usullari hisoblanadi.

Yodda tutish kerakki, amortizatsiya hisoblashning tanlangan usuliga soliq solinadigan foyda miqdori bog'liq, bu oxir oqibat foyda solig'iga ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli davr uchun ko'proq qulay bo'lgan soliq rejimini tanlashda soliqqa tortiladigan daromadni ko'paytirish yoki kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Bu soliqning progressiv stavkalarini qo'llaydigan mamlakatlar uchun muhim, qator mamlakatlarda esa soliq stavkalari "buxgalteriya" va "soliq" amortizatsiyasi summalariga muvofiqlashtirilishi kerak. Amortizatsiya to'lovlari korxonani o'zini o'zi moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi, shuning uchun amortizatsiya to'lovlari bo'yicha me'yorlarning belgilanishi soliq siyosatining muhim elementlaridan biridir.

Soliq imtiyozlari asosiy kapital qiymatini qoplash (amortizatsiya) doirasida kapital qo'yilmalarning ko'payishini rag'batlantirish va mamlakatda iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish maqsadida deyarli barcha davlatalarda qo'llaniladi. Ayni paytda, odatda, rivojlangan mamlakatlar hukumatlari maksimal amortizatsiya imtiyozlarini berish siyosatini yuritmoqdalar, bu esa shunga olib keladiki, haqiqiy foydaning katta qismi amortizatsiya fondlari ko'rinishida korxonaning o'zida qoladi.

Tezlashtirilgan amortizatsiya usullaridan tashqari soliq imtiyozlariga shuningdek kreditlar, soliqni to'lashni kechiktirish yoki butunlay ozod qilish ham kiradi. Kreditlar soliq summasi hisoblangandan keyin beriladigan chegirmalardir. Eng ko'p uchraydigan kreditlar: chet elda to'langan soliqlar uchun kredit (foreign tax credit). Xorijda to'langan soliq summolari soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarining umumiy summasidan chiqarib tashlanadi. Investitsiyaviy kredit (investment credit). Investitsiyaviy soliq krediti – bu korxonaga soliqni to'lash muddatini o'zgartirib, muayyan davr davomida va muayyan miqdorlarda soliq

bo'yicha to'lovlarni kamaytirgan holda keyinchalik kredit summasini asta-sekin foizlar bilan birga to'lab borish imkoniyatini berishdir.

Soliq krediti korxonaning investitsiyaviy faolligini rag'batlantiradi. Kreditni berish tartibi va shartlari har qaysi mamlakat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Bugungi kunda bu soliq kam berilmoqda. AQShda u 1986 yilda bekor qilingan. Germaniya va Norvegiyada bunday imtiyozlar umuman yo'q. Frantsiyada investitsiyaviy kreditdan yangi korxonalarni yaratishni rag'batlantirish, shuningdek qoloq mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishni tezlashtirish maqsadida foydalaniladi.

Foydadan xayriya, ijtimoiy-siyosiy va boshqa maqsadlar uchun chegirmalar muayyan ahamiyatga ega, ularning miqdori odatda qat'iy belgilanadi. Masalan Germaniyada bu chegirmalarning miqdori xayriya qiluvchi daromadlari (foydasini)ning 5 foizidan oshmaydi (qator hollarda – 10foiz). Siyosiy partiyalarning xayriya va badallari uchun alohida tartib belgilangan.

Imtiyozlarning keyingi turi – soliq to'lashni kechiktirish. Ularning ayrimlari uchun eng uzoq muddat 3-5 yil belgilanadi (masalan, foydaning bir qismini yangi investitsiyalar uchun rezerv fondiga o'tkazish), boshqalari aniq bo'lmagan davomiylikka ega (masalan, AQShda muayyan turdagi eksport kompaniyalarini soliqqa tortish olingan foydani aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi paytigacha kechiktiriladi) va h.k. Imtiyozlarning mazkur turi shunisi bilan muhimki, soliq stavkalari yuqori bo'lganda soliqni kechiktirib to'lash soliq summasini butunlay hisobdan chiqarish bilan deyarli barobar. Italiyada ayrim qoloq hududlarda 1986 yil 29 martdan keyin tashkil etilgan yangi korxonalar tadbirkorlik faoliyati bo'yicha korporatsion va mahalliy soliqlardan 10 yilga ozod etiladi (1993 yil 31 dekabrda keyin bu imtiyoz qisman kamaygan).

Eng ko'p tarqalgan soliq imtiyozlaridan – kichik korxonalar uchun soliq stavkalarini kamaytirish. Ushbu imtiyozning xususiyati shundan iboratki, u juda kam hollarda soliq imtiyozi deb e'lon qilinib, soliq siyosatining mustaqil yo'nalishini tashkil qiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada 1999 yil 1 apreldan foyda solig'i stavkasi kichik korxonalar uchun (yillik foyda summasi 300000 funt

sterlinggacha bo'lgan korxonalar kichik korxonalarga kiradi) 21 dan 20 foizga kamaytirildi.

I bob bo'yicha xulosalar

Mamakatimizda moliyaviy barqarorlik qaror topa boshlagandan keyin ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan barcha korxonalar uchun daromad solig'ining o'rniga foyda solig'ini joriy etish imkoniyati paydo bo'ldi. Bugungi kunda aktsiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortish tizimi bo'yicha etarlicha iqtisodiy va huquqiy asos yaratildi. Iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonunchilik takomillashtirilib borilmoqda.

Biz ushbu bobda aktsiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish va boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari, ular faoliyatini soliqqa tortish hamda soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasiga to'xtalib o'tdik. Bitiruv malakaviy ishining keyingi bobida aktsiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortish tizimining amaldagi holati tahlilini ko'rib o'tamiz.

II-bob. Milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili va ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash (“Shofirkon paxta tozalash” OAJ misolida)

2.1. “Shofirkon paxta tozalash” ochiq aktsiyadorlik jamiyati moliya-xo'jalik faoliyati tahlili

“Shofirkon paxta tozalash” ochiq aktsiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 11 iyundagi PF-2874 sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 12 iyun 2001 yildagi 252-sonli «Respublika paxta tozalash sanoatining boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori asosida qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

«Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyati Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qaroriga muvofiq o'z aktsiyalarining 51-foiziga egalik qiluvchi “Buxoropaxtasanoat” hududiy aktsiyadorlik birlashmasining tizimiga kiruvchi jamiyat bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Maqkamasining qaror va Farmoyishlari, “O'zpaxtasanoat” uyushmasi, “Buxoropaxtasanoat” HAB va jamiyat ustavlari asosida yuritadi.

«Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyati asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- paxta xom ashyosi xarid qilish, qayta ishlash, bozor mexanizmlarini rivojlantirish, jahon bozorida raqobatga bardoshli yuqori sifatli paxta mahsulotlari ishlab chiqarish va shu orqali paxta tozalash korxonasining iqtisodiy samaradorligini oshirish va foyda olish;

- paxta xom ashyosini xarid qilish va qayta ishlash yuzasidan paxta etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzish;

- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq paxta xom ashyosini xarid qilish va uni belgilangan reja-topshiriqlarga muvofiq o'z vaqtida qayta ishlash, ishlab chiqarilgan paxta mahsulotlarini eksportga va ichki bozor iste'molchilariga etkazib berish;

- paxta etishtiruvchi xo'jaliklarni paxtaning jaxon bozorida xaridorgir bo'lgan selektsiya navlarining yuqori konditsiyali urug'lik chigitlari bilan ta'minlash, paxta xom ashyosining sifatli qabul qilinishi, saqlanishi va qayta ishlanishini tashkil etish;

- “Paxtasanoat” hududiy aktsiyadorlik birlashmasi tomonidan ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanish, paxta xom ashyosini xarid qilish va qayta ishlash yuzasidan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq paxta

etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklari bilan belgilangan tartibda hisob-kitob qilish;

- paxta xom ashyosini xarid qilish, paxta tolasi va boshqa paxta mahsulotlari ishlab chiqarish, iste'molchilarga jo'natish va shu mahsulotlarning qoldiqlari bo'yicha hisob-kitob va hisobot yuritish, paxta xom ashyosini xarid qilish, paxta mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari, uni eksportga va respublika iste'molchilariga sotish bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash;

- paxta tozalash korxonasini texnik jihatdan qayta jihozlash va rivojlantirish bilan shug'ullanish.

Aktiyadorlik jamiyati o'ziga yuklangan vazifalardan kelib chiqib, quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- xizmat ko'rsatuvchi bank bilan birgalikda paxta xom ashyosi xarid qilish yuzasidan paxta etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzadi, ularning bajarilishini ta'minlaydi. Tayyorlangan paxtaning miqdori va sifati bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlaydi;

- paxtaning navlar bo'yicha joylashtirilishi, urug'lik paxta xom ashyosini qabul qilish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasiga rioya etilishini ta'minlaydi;

- korxonaning bankda ochilgan maxsus hisob raqami orkali, qishloq xo'jaligi korxonalari va fermer xo'jaliklari bilan belgilangan tartibda, paxtani qayta ishlash va mahsulotni sotish tugallangandan keyin, uzil-kesil hisob-kitob qiladi;

- paxta mahsulotining eksportga va respublika iste'molchilariga jo'natilishini tashkil etadi;

- paxta etishtiruvchi xo'jaliklarni moliyalashtirish miqdorlari hisob-kitobini hududiy birlashmaga o'z vaqtida taqdim etilishini hamda tushgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini ta'minlaydi;

- kontraktatsiya shartnomalari bajarilishi, paxta tozalash korxonasi bo'yicha paxta mahsulotlari ishlab chiqarilishi va etkazib berilishi hajmi yuzasidan ma'lumotlarni hududiy birlashmaga o'z vaqtida taqdim etadi;

- investitsiya dasturlarini amalga oshiradi, korxonani zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta jixozlash, yangi ishlab chiqarish kuvvatlarini ishga tushirish buyicha ishlarni amalga oshiradi;

- paxta xom ashyosini qayta ishlashning texnologiya reglamentiga rioya etilishi, xom ashyo resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanilishi, paxta tolasi, chigit va momiqning normativlarga muvofiq chiqishi ta'minlanishi, raqobatbardosh sifatli paxta mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda paxta mahsulotlari bilan ishlashda yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

- paxta xom ashyosini xarid qilish, paxta mahsulotlari ishlab chiqarish, jo'natish va uning qoldiqlari bo'yicha hisob-kitob va hisobotlarni yuritadi hamda ma'lumotlarni belgilangan tartibga muvofiq statistika va boshka davlat organlariga hamda birlashmaga taqdim etadi;

- jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish va ishchi-xizmatchilarni kerakli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida ushbu mahsulotlar bilan ulgurji savdo va transport xizmati faoliyatini amalga oshiradi.

Aktsiyadorlik jamiyatining ustav fondi uning kreditorlari manfaatlarini himoyalash uchun kafolatlaydigan darajaning eng kam mikdorini belgilaydi.

Aktsiyadorlik jamiyati oddiy aktsiyalar bilan birgalikda umumiy qiymati uzining ustav fondi mikdorining yigirma foizidan ko'p bulmagan imtiyozli aktsiyalarni joylashtirishga xaqlidir.

Aktsiyadorlik jamiyatining har bir ishtirokchisi jamiyatning aktsiyasiga obuna bo'lgandan va ularning qiymatini to'liq to'laganidan keyinkorxona ustavidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi va "aktsiyador" deb ataladi.

Aktsiyadorlik jamiyati mulki ustav fondidan, xo'jalik faoliyati natijasida jamiyatning ishlab chiqargan mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra sotib olingan o'zga mulk hisobiga tashkil qilinadi.

2.1.1-jadval

«Shofirkon paxta tozalash» aktsiyadorlik jamiyati buyicha aktsiyalar ulushining joylashuvi

№	Tashkilotlar nomi	Aktsiyalar Soni	Summasi
1.	OATB “Agro bank” Buxoro shahar bo’limi	76063	87 472 450
2.	OATB “Mikrokredit bank” Kogon bo’limi	1512	2 413 950
3	“Buxoro paxtatrans”	3400	8126100
4	“Buxsoz ta’mir servis” IChK	Ulush	830000
	Jami:	x	98842500
1	“Buxoro paxta urug’chiligi”	Ulush	120 000 000
2.	“Buxkomtextasdur”	Ulush	12 000 000
3.	“Olot paxta zavodi” OAJ	Ulush	180 000 000
4	“Buxoropaxtasanoathosilotservis” MChJ	Ulush	10 000 000
5	“Buxoropaxtasanoatomadparanda” MChJ	Ulush	13 000 000
6	“Paxtasanoat omad parranda”	Ulush	15 000 000
	Jami:	x	350000000
	XAMMASI:	x	448 842 500

Manba: Aktsiyadorlik jamiyati hisobot ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

«Shofirkon paxta tozalash» OAJ ustav fondining mikdori Davlat mulki ko’mitasi tomonidan korxonaning barcha mulkini baholash natijasida chiqarilgan buyruq bilan tasdiqlangan. Ustav fondi mikdori 291 438 dona aktsiyaga bo’lingan 87 431,4 ming so’zni tashkil etadi.

Shu jumladan 2014 yil 1 yanvar holatida:

- davlat ulushi 51%, ya’ni 148 633 dona aktsiyaga bo’lingan yoki 312 129,3 ming so’zni;
- erkin savdo ulushi 49%, ya’ni 142 805 dona aktsiyaga bo’lingan 299890,5 ming so’zni tashkil etgan.

Aktsiyaning nominal qiymati 2100 so’zni tashkil qiladi.

Aktsiyalar meros, yuridik shaxslarning voris bulish tartibiga hamda amaliyotdagi konunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga binoan olinishi mumkin.

Aktsiyadorlar o’zlariga tegishli aktsiyalarni boshqa aktsiyadorlarning roziligisiz erkin tasarruf etishlari mumkin.

Aktsiyalarni to'lash uchun tushgan kimmatli kog'ozlar hisobga olinib, amaldagi konunchilikda belgilangan tartibda aktsiyadorlik jamiyatining depozitariydagi maxsus hisobida saqlanadi.

Aktsiyadorlik jamiyati ustav fondining miqdori qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan o'zgartirilishi mumkin.

“Shofirkon paxta tozalash» OAJda 2013 yilda rejadagi 29 247 tonna o'rniga 30 987 tonna paxta xom ashyosi qayta ishlanib, rejadagi 10 874 tonna 35,1 foiz o'rniga 35,9 foiz 11 127 tonna tola, rejadagi 16 118 tonna 52, foiz o'rniga 53,4 foiz 16 552 tonna chigit, rejadagi 806 tonna 2,6 foiz o'rniga 2,6 foiz 812 tonna momiq hamda rejadagi 111 tonna 0,4 foiz ulyuk o'rniga 10 tonna 0,04 foiz, rejadagi 1379 tonna 4,5 foiz o'rniga 2,5 foiz 802 tonna pux ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilgan jami mahsulot hajmi 37 mld 1 mln 630 ming so'mni tashkil etdi.

Hisobot davrida qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga e'tibor qaratilib, kartoshka, pomidor, limon, o'rik va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2.1.2-jadval

Korxonada 2013 yilda mahsulot sotish va moliyaviy natija ko'rsatkichlarini bajarilishi

№	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	2013-yilda		Farqi
			Reja	Haqiqat	(+;-)
1.	Sotilgan mahsulotdan tushgan sof tushum	ming so'm	38214216	39683885	+1469669
	Bajarilishi	foiz		103,8	+3,8
2.	Sotilgan mahsulotlarni tannarxi	ming so'm	33996809	35346465	+1349656
3.	Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija	ming so'm	4 217 407	4 337 420	+120 013
4.	Davr xarajatlari	ming	3 529 541	3 457 032	-72 509

		so'm			
	A) sotish xarajatlari	ming so'm	312 644	291 275	-21 369
	B) ma'muriy xarajatlari	ming so'm	880 435	774 162	-106 273
	V) boshqa davr xarajatlari	ming so'm	2 336 463	2 391 595	+55 132
5.	Asosiy faoliyat boshqa daromadlari	ming so'm	118 600	336 118	+217 518
6.	Asosiy faoliyatdan olingan foyda	ming so'm	806 466	1 216 506	+410 040
7.	Moliyaviy faoliyatdan tushgan daromad	ming so'm	300	4	-296
8.	Marja va foizlar shaklidagi xarajatlar	ming so'm	313 000	337 739	+24 739
9.	Soliq to'lagunga qadar foyda	ming so'm	493 766	878 771	+385 005
10.	Foydadan soliqlar	ming so'm	101 913	235 766	+133 853
11.	Sof foyda	ming so'm	391 853	643 005	+251 152
12.	Sof foyda samaradorligi	foiz		162,0	+62,0

Manba: Aktsiyadorlik jamiyati hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2013 yilda korxona 643 mln 5 ming so'm sof foyda bilan yakunladi. Sof foyda biznes rejada ko'rsatilganidan 162 foizga bajarildi. Korxonada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi PF-4058 sonli farmonini hamda 2012 yil 28 noyabrdagi 333-sonli qaror ijrosini bajarish bo'yicha 2013 yilga chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, mahsulot tannarxini kamaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

2013 yil 1 yanvar xolatida jamiyat buxgalteriya balansi buyicha, jami debitor qarzlar 1 892 376 ming so'mni, 2014 yil 1 dekabr xolatida esa 4 014 529 ming so'mni tashkil qilgan, debitor qarzlar hisobot yili boshidan 2 122 153 ming so'mga ko'paydi.

Debitor qarzlarni kupayishini sababi, debitorlarni asosiy salmog'i birlashma va tizim korxonalari qarzlariga to'g'ri keladi va ushbu summa 2 469 161 ming so'mni tashkil qiladi. Ushbu debitor qarzdorliklarni yuklangan tayyor mahsulotlar uchun birlashma tomonidan to'lovlarni amalga oshirilishi hisobidan, keyingi hisobot davri davomida qisqartiriladi.

2.1.3-jadval

Debitor qarzlari ko'rsatkich turlari buyicha harakati

(ming so'm.da)

№	Ko'rsatkich nomi	Hisobot bo'yicha		Farqi +,-
		1.01.2013 yil xolatiga	01.01.2014 yil xolatiga	
1.	Jami debitorlar	1 892 376	4 014 529	+2 122 153
2.	Ajratilgan bulinmalar qarzi	0	0	0
3.	Tizim korxonalari qarzlar	28 567	2 469 161	+2 440 594
4.	Xodimlarga berilgan bunaklar	881	866	-15
5.	Byudjetga soliqlar va yig'imlardan	1 334 284	807857	-526427
6.	Mahsulot etkazuvchilarga avanslar	38 809	271 755	+232 946
7.	Maqsadli jamg'armalarga to'lovlar	328 273	463 171	+134 898
8.	Boshka debitorlar	161 562	1 719	-159 843

Manba: Aktsiyadorlik jamiyati hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jami joriy kreditor qarzlari 2013 yil 1 yanvar holatida 2 658 714 ming so'mni, 2013 yil 1 oktyabr xolatida esa 18 088 550 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, kreditor qarzlari yil boshidan 15 519 836 ming so'mga ko'paygan. Buning sababi fermer xo'jaliklardan 2013 yil paxta hosilidagi topshirgan paxta xom ashyosi qiymati hisobidan kelib chiqqan.

2.1.4-jadval

Kreditor qarzlari ko'rsatkich turlari buyicha harakati

(ming so'm.da)

№	Ko'rsatkich nomi	hisobot bo'yicha		Farqi
		1.01.2013 yil xolatiga	01.01.2014 yil xolatiga	
1	Jami kreditorlar	2 658 714	7 151 375	+4 492 661
2	Mahsulot etkazib beruvchi va pudratchilardan qarzlar	2 307 174	5 292 408	+2 985 234
3	Tizim korxonalaridan qarzlar	0	0	0
4	Muddati kechiktirilgan soliqlar	0	0	0
5	Byudjetga to'lovlardan qarzlar	0	74338	+74338
6	Maqsadli jamg'armalardan qarzlar	88 911	599344	+510433

7	Muassislardan qarzlar	5 276	6 593	+1 317
8	Mehnatga xaq to'lash bo'yicha qarzlar	165 782	161 458	-4 324
9	Bank kreditlari	0	1 000 000	+1 000 000
10	Boshqa kreditorlik qarzlar	91 571	17 234	-74 337

Manba: Aktsiyadorlik jamiyati hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Balansda mavjud 18 088 550 ming so'mlik kreditor qarzlarni 1 000 000 ming so'mini korxonani aylanma mablag' bilan ta'minlash maqsadida olingan qisqa muddatli bank kredit summasi tashkil qiladi.

2014 yil davomida ham jamiyatda ijobiy tendentsiyalarni davom ettirilib korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash maqsad qilingan.

2.2. “Shofirkon paxta tozalash” ochiq aktsiyadorlik jamiyati faoliyatida soliqlar ta'sirining tahlili

Iqtisodiy islohtlar sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarining tezlashuvi, korxonalar iqtisodiy faolligining oshishi nuqtai-nazaridan soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri ko'plab adabiyotlarda bahs va munozaraligicha qolmoqda. Klassik iqtisodchi olimlar A.Smit va D.Rikardo davlatning iqtisodiyotga aralashuvi xususidagi g'oyalarni ilgari surib, soliqlarga birinchi navbatda fiskal nuqtai-nazardan yondoshishadi. Soliqlarning iqtisodiyotga ta'sirini D.Rikardo quyidagicha bayon qiladi: “Jamg'arishni sekinlatmaydigan soliq yo'q, biror bir soliq yo'qki, ishlab chiqarishga halaqit bermasa. Soliqlar xuddi unumsiz tuproqdek, ishchi o'rinlarining noto'g'ri taqsimoti, dastgohlarning yo'qotilishi kabi samara beradi”. Xuddi shuningdek, XX asr boshlanishida fransuz iqtisodchisi J. Seyning fikricha, “Barcha soliqlar qochib bo'lmas zo'ravonlik. To'lovchi tomonidan soliq to'langan zahoti, u davlatga o'tkazilgan summadagi qiymatni yo'qotadi. Shu qiymat davlat tomonidan iste'mol qilinsa, u (qiymat) hamma uchun yo'qoladi va hech qanday holatda jamiyat uchun saqlanib qolinmaydi” deydi. Uning fikricha, soliq uni to'lovchidan yangi qiymat yaratishi mumkin bo'lgan qiymatni olib qo'yar ekan, ya'ni “...soliqlar olish - bu jamiyatga biror narsa bilan qoplab bo'lmaydigan

zarar keltirishdir”. Soliqlar J.Sey fikricha, nafaqat ishlab chiqarishni xonavayron qiladi, balki tovlamachilikka yo’l ochadi, yolg’onchilikni keltirib chiqaradi, manfaatlarni buzadi, dangasalikka moyillikni chaqiradi va hokazo.

Avvalambor, soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta’siri xususidagi o’z yondoshuvimizni bayon etib o’tmoqchimiz. Bu o’rinda T.Malikovning quyidagi fikrini keltirish muhimdir: “To’lanadigan soliqlarning summasi nechaga teng bo’lganda soliqlar haddan ziyod og’ir bo’lishi yoki bo’lmasligi mumkin, degan savol tug’ilishi tabiiydir. Bu savolga raqamlar bilan javob berish ma’no bildirmaydi. Chunki gap aslida, soliq faoliyatning u yoki bu turining rivojlanishiga keskin to’sqinlik qilsa, u holda bunday soliqni haddan ziyod og’ir deb qabul qilish mumkin va aksincha”. Bu fikr soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta’siri birinchi navbatda ularning natijalarida aks etishini bildiradi. Shunday qilib, soliqlar qanday manbadan, qanday bazadan, qanday miqdorlarda va qaysi vaqtda undirilishidan qat’iy nazar ular albatta korxonaning u yoki bu moliyaviy natijalarini o’zgartiradi. Soliqlarning to’liq, o’z vaqtida va hech qanday noroziliksiz to’lanishi uchun birinchi navbatda soliqqa tortish darajasining naqadar to’g’ri va adolatli tashkil qilinishiga bog’liq bo’ladi. Soliqqa tortish tizimining adolatlilikini avvalo yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning davlat, korxona va aholi o’rtasida qanday nisbatda taqsimlanayotganligida ifodalanadi.

Yuridik shaxslar faoliyatiga soliqlar ta’sirini o’rganishda asosiy mezon bo’lib soliq yuki hisoblanishi mumkin.

$$SYu = (ST/SB) * 100\%$$

Bu erda SYu - soliq yuki, foizda

ST — soliq to’lovlari, ming so’mda

SB - soliq bazasi, ming so’mda

Soliq yukining yuqori bo’lishi ishlab chiqarish hajmini chegaralaydi, tadbirkorlikni susaytiradi va ishlab chiqarishni kengaytirishga bo’lgan rag’batni yo’qotadi. Bunday sharoitda korxonalar soliqdan qochishga harakat qilishadi.

Izlanishlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, soliqlarning korxonalar moliyaviy natijalariga ta'siri nuqtai-nazaridan soliq yukini to'rtga ajratish mumkin ekan va soliq yuki formulasining quyidagi shakllarini keltirish mumkin :

$$SYu1 = ((QQS+Ak+...)/(STT)) * 100\%$$

$$SYu2 = ((Ssuv+Smulk+Adbm)/(TN)) * 100\%$$

$$SYuZ = ((Sfoйда+BSA)/(BF)) * 100\%$$

$$SYu4 = ((DS)/(IXF)) * 100\%$$

Bu erda:

SYu1, SYu2, SYuZ, SYu4 — mos ravishda bilvosita soliqlar, tannarxga kiritiluvchi soliqlar, foydadan olinuvchi, ishlovchilar ish xaqidan undiriluvchi daromad soliqlari yuki, foizda;

QQS-qo'shilgan qiymat, Ak-aktsizlar, Ssuv-suv resurslaridan foydalanganlik uchun, Smulk-yuridik shaxslar mol-mulki, Adbm-nobyudjet fondlarga ajratmalar, Sfoйда-foйда, BSA - foydadan boshqa soliq va ajratmalar, DS-ishlovchilar daromadidan soliq va to'lovlarning miqdorlari, ming so'mda;

STT-mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum, TN-mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, BF-soliqqa tortiluvchi foйда, IXF-ishlovchilarning ish xaqi fondi, ming so'mda.

Xuddi mana shu yondoshuvdan kelib chiqib, ishlab chiqarish sanoati korxonalari faoliyatiga soliqlar ta'siri o'rganib chiqishga xarakat qilindi.

Avvalo iste'mol soliqlari yoki egri soliqlar hisoblanmish qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'ini ko'rib chiqamiz. Ma'lumki iste'molchilarga nisbatan soliqlarni pasaytirish ularning tovarlar iste'mol qilishini yoki talabni oshiradi. Iste'molga soliqlarni kamaytirish faqat barqaror va yuqori iste'mol mavjud bo'lganda samarasiz vosita hisoblanadi. Chunki ular pulni jamg'arilishini ko'paytiradi. QQSning bir necha ijobiy tomonlari mavjud, avvalo uning korxonalar yakuniy moliyaviy natijasiga neytralligi uni yuqori darajada undirish imkonini beradi. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida undirilganligi sababli byudjetga uzluksiz daromadlar kelishini ta'minlaydi. Shunga qaramay hozirgi vaqtda QQS korxonalar moliyaviy holatiga ancha ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, korxona

QQSdan ozod qilingan bo'lsa yoki ozod qilingan tovar ishlab chiqarsa sotib olingan barcha xom-ashyo va resurslar uchun to'langan QQSni hisobga olish huquqiga ega bo'lmaydi va uni ishlab chiqarish tannarxiga kiritadi. Natijada korxona rentabelligi pasayib, foyda miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holda korxona QQSdan ozod etilishga yoki imtiyozli tovar ishlab chiqarishdan manfaatdor bo'lmaydi. Bu turdagi korxonalar oraliq mahsulotlar ishlab chiqarsa bu tovarlarni umumiy tartibda soliq to'lovchi korxonalar sotib olishi qiyin bo'ladi. Chunki QQSdan ozod korxona xisob-fakturaga QQSsiz deb yozib beradi, umumiy tartibda soliq to'lovchi korxona esa sotib olingan tovarlarning butun aylanmasidan QQS to'lashiga to'g'ri keladi. Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bo'yicha hisoblanadi va byudjetga to'lanadi. Soliq solish obekti bo'lib tovarlarning sotilishi bo'yicha aylanmalar hisoblanadi (QQSdan ozod qilingan aylanmalardan tashqari).

Bitiruv malakaviy ishi doirasidagi tahlillarimizni «Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2013 yilda byudjetga to'lagan soliqlarini tahlil qilish bilan davom ettiramiz.

2.2.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak korxona bilvosita soliqlar turkumiga kiruvchi soliqlardan faqatgina qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchisi hisoblanadi. 2013 yil 1 yanvar holatida korxona tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qoldiq majud bo'lib uning miqdori 1 062 070 ming so'mni, hisobot bo'yicha 1 382 529 ming so'mni, jami to'langan summa esa 933 198 ming so'mni tashkil etdi. 2014 yilning 1 yanvar holatida 612 739 ming so'm miqdorida soliq majburiyati mavjud.

2.2.1-jadval

«Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2013 yilda byudjetga to'lagan soliqlari to'g'risida ma'lumot

(ming so'mda)

№	Soliq turi	01.01.2013 yil holatidagi qoldiq	Hisobot buyicha	Jami xisoblan di	To'landi	01.01.2014 yil holatidagi qoldiq
---	------------	--	--------------------	------------------------	----------	--

1.	Daromad solig'i	-51097	271471	271471	159160	61214
2.	QQS	-1062070	1382529	1382529	933198	-612739
3.	Mulk solig'i	-68746	202759	202759	224879	-90866
4.	Foyda solig'i	-24176	132238	132238	155733	-47671
5.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infr.rivoj.solig'i	-62768	62837	62837	40000	-39931
6.	Er solig'i	-61103	135133	135133	149951	-75921
7.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	-2830	2009	2009	2590	-3411
8.	Penya	-85	0	0	132	-217
9.	Dividenddan daromad solig'i	-1409	1457	1457	1457	-1409
JAMI :		-1334284	2190433	2190433	1667100	-810951

Manba: Aktsiyadorlik jamiyati hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Endi tahlillarimizni korxona to'laydigan bevosita soliqlar bo'yicha davom ettiramiz. Korxonada 2013 yilda 271 471 ming so'm jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblandi va 159 160 ming so'm byudjetga o'tkazildi. 2014 yil 1 yanvar holatiga 61 214 ming so'm qoldiq mavjud.

2013 yilda byudjetga jami hisoblangan soliqlar miqdori 2 190 433 ming so'm bo'lib shundan byudjetga 1 667 100 ming so'm o'tkazildi. 2014 yilning 1 yanvar holati bo'yicha soliqlar bo'yicha qoldiq miqdori o'tgan yil bilan qo'shib hisoblanganda 810 951 ming so'mni tashkil etdi.

Tahlillarimizni «Shofirkon paxta tozalash» OAJning 2014 yilda rejalashtirilayotgan daromad va xarajat ko'rsatkichlarini keltirish bilan davom ettiramiz:

Daromad ko'rsatkichlari:

1. Mahsulot sotish – 4 204 8211 ming so'm;
2. Olinadigan dividendlar va boshqalar – 196 550 ming so'm;

Jami daromadlar – 42 244 761 ming so'm.

Xarajat ko'rsatkichlari:

1. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi – 37 318 287 ming so'm;
2. Davr xarajatlari – 3 800 857 ming so'm;

Shundan:

- Sotish xarajatlari – 330 435 ming so'm;
- Ma'muriy boshqaruv xarajatlari – 984 440 ming so'm;
- Operatsion xarajatlar – 2 485 982 ming so'm.

3. Moliyaviy xarajtlar - 621 700 ming so'm;

Shundan:

- Bank krediti foizi to'lovlari – 355 400 ming so'm;
- Paxtasanoat XAB ga to'lanadigan marja to'lovi – 266 300 ming so'm;

Jami xarajatlar – 41 740 844 ming so'm.

2014 yilda kutilayotgan daromad 42 244 761 ming so'm, ko'zda tutilayotgan xarajatlar miqdori esa 41 740 844 ming so'm va foyda solig'i to'lagunga qadar daromad miqdori 503 917 ming so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Soliqqa tortish bazasiga qayta qo'shiladigan xarajatlar 260 000 ming sumni tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i – 68 753 ming so'mni, mahalliy byudjetga to'lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i esa 34 813 ming so'mni tashkil etadi. 2014 yilga rejalashtirilayotgan sof foyda miqdori 400 351 ming so'mni tashkil etadi.

Biz mazkur paragrafda o'z tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, «Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyatini moliyaviy-xo'jalik faoliyati, unga soliqlarning ta'siri va rivojlantirish istiqbollari haqida fikr yuritdik. Keyingi paragrafda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning aktsiyadorlik jamiyati moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini tahlil qilamiz.

2.3. Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar va uni aktsiyadorlik jamiyati moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri

Moliya tizimida markazlashgan maqsadli jamg'armalar alohida o'rin tutadi. Mazkur jamg'armalarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud.

Mamlakatimizda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ijtimoiy ahamiyati katta. Davlat moliyasi davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funktsiyalarini bajarish uchun pul mablag'lari bilan ta'minlashga undalgan moliya tizimining muhim bo'g'inidir. Davlat moliyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat byudjeti.
- byudjetdan tashqari jamg'armalar.
- davlat kreditlari.
- davlat korxonalari moliyasi.

Davlat moliyasining sanab o'tilgan turli xildagi bo'g'inlari bo'yicha davlat iqtisodiy va ijtimoiy jamg'armalarning tarmoq va hududiy muammolarning echimlarini keng miqiyosida hal etadi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan byudjetdan tashqari fondlar tegishli xukumat organlarining byudjetiga bog'liq bo'lmaydi va mustaqil yuridik shaxs huquqiga egadirlar. Byudjetdan tashqari fonlar xukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari – bu markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari har bir alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Ularning moliyaviy mablag'larini shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli foydalanishi bevosita moliyaviy me'yoriy-huquqiy xujjatlarni bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, turli mulkchilik shakllarining rivojlanishi bilan vaziyat o'zgardi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishlovchilar, korxonalar, davlat va jamiyat manfaatining yangi munosabatiga xos ijtimoiy himoyaning shakl va mexanizmlarini yaratish zarurati kelib chiqdi. Davlat bu jamg'armalarning mablag'lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi. Ijtimoiy siyosat chora-tadbirlarini moliyaviy ta'minlaydi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning izchil faoliyati natijasida aholi kuchli ijtimoiy himoya qilinishi bilan birga, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham rivojlantiriladi. Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda moliya tizimining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratishi tabiiy hol,

albatta. Moliya tizimida markazlashgan maqsadli jamg'armalar alohida o'rin tutadi. Mazkur jamg'armalarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan tashqari maqsadli pul fondlarining o'rni va roli juda muhimdir. Chunki, Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarishda, aholi turmush darajasini oshirishda, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda bevosita Davlat byudjeti bilan birga byudjetdan tashqari fondlardan ham foydalaniladi.¹⁹

Ayni paytda byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari nafaqat davlatning daromadlar bazasini ta'minlashi va kelib tushgan pul mablag'larini xarajat qilishi lozim, balki jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni hamda aholining optimal bandligini ham ta'minlashi zarur. Chunki, O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad aholi turmush farovonligini yaxshilashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bizning hamma ishlarimizda – bu iqtisodiy siyosatimizni shakllantirish masalasi yoki iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish dasturini hayotga tatbiq etish bo'la-dimi, ijtimoiy soha tizimida ertangi va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish bo'ladimi – bularning barchasida biz uchun faqat bitta masala eng ustun va hal qiluvchi o'rinda turadi. U ham bo'lsa, inson manfaatlarining ustuvorligidir. Xalqimizning turmush darajasi va hayot sifatini izchil va bosqichma-bosqich yuksaltirib borish bo'yicha bizning asosiy maqsadimiz ham ana shundan iborat»²⁰.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari davlat tomonidan jamiyat ehtiyojlarini va mustaqil kompleks ravishda xarajat qilish uchun jalb etilgan

¹⁹ G.Qosimova, Z. Karimova. Byudjetdan tashqari fondlar. T. "Iqtisod-moliya". 2009 y. 212 b.

²⁰ Karimov I. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning boshmaqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalk so'zi. 2008. 19 fevral.

mablag'larni qayta taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlardir. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarining afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning qoldiq tamoyillarini bartaraf etish imkonini beradi;
- byudjet xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga ola-di va byudjetdan mablag' bilan ta'minlash muammosini ma'lum darajada hal qiladi;
- mablag'lardan maqsadli foydalanadi va moliyaviy resurs-larni ko'paytirish imkonini yaratadi²¹.

Ko'pgina mamlakatlarda davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan maqsadli byudjetdan tashqari fondlar tegishli hukumat organlarining byudjetiga bog'liq bo'lmaydi va yuridik shaxs huquqiga ega. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi.

Byudjetdan tashqari maqsadli fondlar davlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan. Pul fondlaridan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan va davlat hukumatning yuqori organlarining tegishli aktlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari maqsadli fondlarni tashkiliy tuzilishiga ko'ra jamlangan byudjetga qo'shiladigan va qo'shilmaydigan fondlarga ajratish mumkin. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarni funktsional jihatiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy fondlarga bo'lish mumkin. Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarni tashkil etilishining muvofiqli-gini ta'minlovchi yana bir muhim omil byudjet taqchilligidir. Byudjet xarajatlarini daromaddan oshib ketishi moliyaviy resurslarni qidirib topishgina emas, korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhlashni ham talab etadi.

²¹ G.Qosimova, Z. Karimova. Byudjetdan tashqari fondlar. T. "Iqtisod-moliya". 2009 y. 212 b.

Byudjetdan tashqari fondlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishning dastlabki belgilari desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bu fondlarning ham ijti-moiy, ham iqtisodiy ahamiyati katta.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari – bu markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari ixtiyoridagi qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lgan moliyaviy mablag'lar yig'indisidir. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari har bir alohida davlat moliya tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Ularning moliyaviy mablag'larini shakllanishi, taqsimlanishi va resurslardan maqsadli foydalanishi bevosita moliyaviy me'yoriy-huquqiy xujjatlarni bilan muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi.

Shunday qilib, davlat umumjamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni o'z vaqtida va to'liqligicha amalga oshirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarda shakllanayotgan moliyaviy resurslarning bir qismini byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari ixtiyoriga moliyaning taqsimlash funksiyasi orqali jalb qiladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning umumdavlat moliyasining bo'g'inlaridan biri b'lib hisoblanadi. Bizda davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, aholi bandligi davlat jamg'armasi va hokazolar faoliyat ko'rsatmoqda. Byudjetdan tashqari jamg'armalar iqtisodiyot oldida turadigan ishlab chiqarishni yuksalishin ta'minlash, tanglik xodisalarini engish vazifalarini hal etishi yordam beradi.

Umumdavlat miqiyosida moliya resurslarini tashkil etishning eng taniqli shakli bo'lib davlat va mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Biroq, qator omillar boshqa shakl-byudjetdan tashqari jamg'armalardan ham parallel ravishda foydalanishining maqsadga muvofiqligini shartlaydi.

Moliya resurslarining cheklanganligi istalgan vaqtda moliya resurslarini qayta taqsimlash zaruratini keltirib chig'arishi mumkun. Davlat byudjeti ko'p jihatdan daromadlarning buromadlar muayyon turlarga berkitilmaganligi tufayli mablag'larni harakatlanishiga ko'maklashadi. Biroq, mablag'larning, xarajatlarning moddalari bo'yicha ortiqcha o'tkazib turilishiga yo'l qo'ymaslik

kerak, xususan, ijtimoiy talab-ehtiyojlar alohida tashvishni keltirib chiqaradi, negaki xarajatlarni aynan shu maqsadlarga qisqartirish xafi doimo mavjud buladi.

Byudjet tanqisligi ham byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qildirishning maqsadga muvofiqligini shartlaydigan ahamiyatli omili bo'lib hisoblanadi. Buromadlarning daromadlardan oshishi nafaqat qoplash uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarning qondirilishi, balki korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholining muayyon sarflarini qoplash uchun tushadigan mablag'larning qayta guruhlantirilishini ham talab qiladi.

Tarixiy ma'lumotlarning darak berishicha, Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarining dastlabki shakllari hozirgi davlatchilikning yagona markazlashgan fondi hisoblangan davlat byudjetidan muqaddam maxsus fondlar ko'rinishida shakllangan. Ma'lumki, davlatning faoliyat ko'lami kengaygan sari uning xarajatlarga bo'lgan talabi ham oshib boraverdi. Ushbu xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat yoxud uning vakolatiga ega bo'lgan muayyan organ moliyaviy mablag'larni maxsus fondlarda markazlashtirgan va maqsadli ob'ektlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirgan. Shuni alohida qayd etish joyizki, o'sha paytlar markazlashgan davlat jamg'armalari davr taqozasining talabiga muvofiq, vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lgan. Ya'ni davlat zarur chora-tadbirlarni amalga oshirib moliyalashtirishni tugatgandan keyin ushbu jamg'armalar faoliyati o'z-o'zidan tugatilgan. Shu bois, maxsus jamg'armalarning miqdori va shakli doimo o'zgarib turgan, ya'ni davr taqozasi va muayyan zaruriyatdan kelib chiqib, ehtiyoj sezilmaganlari tugatilgan, yangilari esa paydo bo'lgan. Lekin, tarixiy tendentsiya shuni namoyon qilyaptiki, muayyan mamalkatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari va mamlakatning xududi kengayishi munosabati bilan byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarning miqdori ham hajmi ham o'sish xususiyatiga ega bo'lgan.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar - bu, ba'zan ijtimoiy ehtiyojlarning moliya bilan ta'minlash uchun davlat tomonidan jalb qilinadigan va operativ mustaqillik asosida kompleks ravishda sarflanadigan moliya resurslarini qayta taqsimlash va

foydalanish shakli. G'arb mamlakatlarida bunday jamg'armalar soni 30 tadan 80 tagacha etadi²².

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 36-moddasida Davlat maqsadli jamg'armalari sifatida quyidagilar e'tirof etilgan:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi;

O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi.

O'z navbatida, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari miqdorining ko'payishi ma'lum bir qiyinchilik va noqulayliklarni tug'dirgan. Xususan, jamg'arma qat'iy maqsadli xususiyatga ega bo'lgani bois, ayrim jamg'armalarda moliyaviy resurslar keragidan ortiq bo'lsa, ayrimlarida etishmovchiliklar qaror topgan, shuningdek, davlat ularni boshqarish va muvofiqlashtirishini moliyalashtirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilishiga majbur bo'lgan. Bu o'z o'rnida, jismoniy va yuridik shaxslarga qo'shimcha moliyaviy yuk hisoblanib, ular o'rtasida ma'lum bir noroziliklarning paydo bo'lishiga ham olib kela boshlagan. Bunday salbiy holatlarni oldini olish uchun markazlashgan davlat shakllanishiga zaruraat tug'ilgan.

²² G.Qosimova, Z. Karimova. Byudjetdan tashqari fondlar. T. "Iqtisod-moliya". 2009 y. 212b.

Markazlashgan davlatning qaror topishi bir qator davlat jamg'armalarini uyg'unlashtirib bir necha muammolarni oldini olish imkoniyatini tug'dirdi. Jumladan, bir jamg'armada ortiqcha bo'lgan moliyaviy mablag'larni ikkinchi bir jamg'armadagi etishmayotgan moliyaviy mablag'lar o'rniga mobilizatsiya qilish imkoniyati hosil bo'la boshladi. Mana shunday har xil davlat jamg'armalarining uyg'unlanishi asosida ulkan bir markazlashgan fond, ya'ni davlat byudjetini tashkil etilishiga asos solindi. Sekin-asta davlat byudjeti har tomonlama mustahkamlanib borib, mamlakatning oliy organi uni ko'rib chiqib, tasdiqlagandan keyin qonuniy kuchga kirib, ijro etish majburiyati sezila boshlandi.

Biz bitiruv malakaviy ishi doirasidagi tahlillarimizni «Shofirkon paxta tozalash» OAJning davlat maqsadli jamg'armasiga to'lovlarini o'rganish bilan davom ettiramiz.

2.3.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak aksiyadorlik jamiyati 2013 yilda davlat maqsadli jamg'armalariga jami 2315205 ming so'm miqdorida to'lovlar hisoblanib, 1937477 ming so'm miqdoridagi summa davlat maqsadli jamg'armalari va fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti hisobvarag'iga o'tkazib berilgan. 2014 yil 1 yanvar holatida 138366 ming so'm miqdorida qoldiq qolgan.

2.3.1-jadval
«Shofirkon paxta tozalash» ochiq aksiyadorlik jamiyatining 2013 yilda
Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalari to'g'risida ma'lumot
(ming so'mda)

№	Soliq turi	01.01.2013 yil holatidagi qoldiq	Hisobot buyicha	Jami xisoblandi	To'landi	01.01.2014 yil holatidagi qoldiq
1.	Yagona ijtimoiy to'lov	-171977	710864	710864	539308	-421
2.	Fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badali	-39436	168983	168983	155000	-25453
3.	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	75436	635141	635141	603192	107385
4.	Byudjetdan tashqari	-9181	198481	198481	204668	-15368

	Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi					
5.	Respublika yo'l jamg'armasi	-107679	555748	555748	383249	64820
6.	Pensiyalarni to'lashga doir xarajatlarni qoplash (15-modda)	2813	18823	18823	21600	36
7.	Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i	10662	27165	27165	30460	7367
JAMI		-239 362	2315 205	2315 205	1937477	138366

Manba: Aktsiyadorlik jamiyati hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy ajratmalarning har bir turi bo'yicha tahlillarimizni davom ettiramiz. Korxona yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha 2013 yilda 539308 ming so'mlik to'lovni amalga oshirgan bo'lib 2014 yilning 1 yanvar holatida 421 ming so'm majburiyatga ega bo'lgan.

Fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badali bo'yicha 168983 ming so'mlik to'lov hisoblanib joriy davrda 155000 ming so'mlik o'tkazma qilingan. Shuningdek, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi uchun 635141 ming so'mlik to'lov hisoblanib o'tkazma miqdori 603 192 so'mni tashkil etgan.

II- bob bo'yicha xulosalar

«Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyatining 2013 yilda byudjetga bilvosita soliqlar turkumiga kiruvchi soliqlardan faqatgina qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchisi hisoblanadi. 2013 yil 1 yanvar holatida korxona tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qoldiq majud bo'lib uning miqdori 1 062 070 ming so'mni, hisobot bo'yicha 1 382 529 ming so'mni, jami to'langan summa esa 933 198 ming so'mni tashkil etdi. 2014 yilning 1 yanvar holatida 612 739 ming so'm miqdorida soliq majburiyati mavjud.

2013 yilda byudjetga jami hisoblangan soliqlar miqdori 2 190 433 ming so'm bo'lib shundan byudjetga 1 667 100 ming so'm o'tkazildi. 2014 yilning 1 yanvar

holati bo'yicha soliqlar bo'yicha qoldiq miqdori o'tgan yil bilan qo'shib hisoblanganda 810 951 ming so'mni tashkil etdi.

Korxona 2013 yilda davlat maqsadli jamg'armalariga jami 2315205 ming so'm miqdorida to'lovlar hisoblanib, 1937477 ming so'm miqdoridagi summa davlat maqsadli jamg'armalari va fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti hisobvarag'iga o'tkazib berilgan.

Shofirkon paxta tozalash» ochiq aktsiyadorlik jamiyatining asosiy maqsadi paxta etishtiruvchi xo'jaliklardan qabul qilib olingan paxta xom-ashyosini sifatli qayta ishlab jahon bozori talablariga va standartlariga javob beradigan mahsulotlar tola mahsulotlari ishlab chikarishdan iboratdir.

III bob. Aktsiyadorlik jamiyatlarida ishlab chiqarishni rag'batlantirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish va undirish mexanizmini takomillashtirish

3.1. Ishlab chiqarishni rag'batlantirishda korxonalardan olinadigan foyda solig'iga toriladigan bazani takomillashtirish

Foyda solig'iga tortiladigan bazani respublikamiz soliq qonunchiligiga asosan aniqlash mexanizmida korxonaning soliq to'lagunga qadar bo'lgan foydasiga soliq solinadigan bazaga qayta qo'shiluvchi xarajatlarni qo'shish orqali aniqlanishini keltirib o'tgan edik. Foyda solig'ida soliq tushumlari miqdoriga asosan uchta

omilga, ya'ni soliq stavkasi darajasi, soliq to'lovchilarning soni va soliq bazasining kengligiga bog'liq bo'ladi

Soliq bazasi deyilganda birinchidan, barcha soliqlar turlarining manbai sifatida iqtisodiyotda yaratilayotgan daromadlar, tovarlar (ish, xizmatlar) oboroti, er maydoni, mulklar qiymati, qo'shimcha qiymatlar, jismoniy shaxslar daromadlari tushuniladi. Bunday ma'nodagi soliq bazasining kengayishi iqtisodiy rivojlanishning ijobiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Soliq bazasining ikkinchi ma'nodagi tushunchasi har bir alohida olingan soliq turi bo'yicha uning ob'ektiga kiruvchi elementlar yig'indisini ifodalaydi. Yalpi ichki mahsulot o'zgarmagan holda hamda soliq stavkasi oshmagan holda soliq bazasining bunday kengaytirilishi soliq tushumlarini sun'iy ravishda ko'paytiradi. Soliq tushumi va soliq bazasining bunday kengayishi iqtisodiy rivojlanishning salbiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Chunki byudjet daromadlarining ko'payishi bunda milliy YaIMning oshishi hisobiga emas, balki xo'jalik sub'ektlari zimmasidagi soliq yukining ortishi, iste'molga yoki ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflanishi mumkin bo'lgan mablag'lar hisobiga bo'ladi.

Bu ma'nodagi soliq bazasining kengayishi yoki kamayishiga, soliq imtiyozlarini bekor qilish yoki qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish, soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan ob'ektlar hajmi ham ta'sir etadi.

Respublikamiz soliq tizimida yuridik shaxslar foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, QQS, mulk, er solig'i kabi soliqlarning soliqqa tortish bazasiga kiruvchi elementlarni qayta ko'rib chiqish, bunda real daromadlarni va real xarajatlarni etiborga olish, qo'shimcha yaratilgan qiymatning real tarkibini belgilash; ularning aniqligini ta'minlash va soddalashtirish soliq tizimidagi dolzarb muammo hisoblanadi.

Hozirgi paytda yuridik shaxslar foyda solig'i bazasini aniqlashdagi eng katta muammo tegishli daromadni olish uchun qilinadigan xarajatlarni, chegirmalarni to'g'ri belgilashdir. Bunda haqiqiy real foyda soliq bazasiga kiritilishi lozim.

Soliq bazasini belgilashda bunday mexanizmning qo'llanilishi xo'jalik sub'ektlarida shakllanadigan moliyaviy resurslarning hozirgi iqtisodiy tiklanish

bosqichida samarasiz yoki iste'molga (investitsiyaga yoki ishlab chiqarishni kengaytirishga emas) ishlatilib ketishining oldini oladi. Korxonalarning soliqdan qochish maqsadlarida xarajatlarni ko'paytirib soliq bazasini kamaytirib ko'rsatishlariga yo'l qo'yilmaydi. Bunday xarajatlarning soliq bazasiga kiritilishi yuridik shaxslarni soliq va boshqa qonunchilikka rioya etishda mas'uliyatni oshirishga, ortiqcha nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslikka, atrof-muhitni ortiqcha ifloslantirmaslikka, istemolni ko'paytirmaslikka va boshqalarga soliq mexanizmi orqali ta'sir o'tkazish vositasidir.

Har qanday xarajat korxona real daromadini pasaytiradi. Ammo ularni aynan shu soliqqa tortilishi lozim bo'lgan daromadni topish uchun qilingan xarajatlarga va foydaning ishlatilish (taqsimlanish) tarzidagi, ya'ni sof foydadan qilinadigan xarajatlarga taqsimlash lozim bo'ladi. Korxonalar ayrim xarajatlarining soliq bazasiga kiritilishi xuddi shunga asoslanadi.

Mamlakatimizda hali bozor qonunlarining to'la amal qilmasligi, xo'jalik yuritishning ba'zida eski usullarining saqlanib qolinganligi, korxonaning kelajakdagi rivojlanishga bo'lgan va mulkiy mas'uliyatning nisbatan sustligi bunday cheklashlar qilishni taqozo etadi. Ammo soliq bazasini belgilashda soliq to'lovchilar imkoniyatlarini haddan tashqari cheklab qo'yish, ularning kelajakda daromadlarini ko'paytirishdan bo'ladigan manfaatdorligini susaytirishga, xo'jalik-moliyaviy faoliyatni yuritishdagi erkinlikning pasayishiga olib keladi. Shuning uchun soliqlar orqali bunday tartibda boshqarishga extiyotkorlik bilan yondoshish zarurki, bunda byudjet daromadlarining asosiy manbai bo'lgan yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligi saqlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, soliq bazasiga kiritiladigan xarajatlarning bir qismining to'g'riliga qo'shilgan holda ularning ayrimlariga e'tirozlarimizni ko'rsatib o'tamiz.

Soliqqa tortiladigan foyda va soliqqa tortilguncha foyda o'rtasidagi farqning o'sib borishi tobora korxonalarda foydasining kamayishiga, ko'p hollarda esa soliq summasi foydadan ham oshib, oborot mablag'lar chetlashishiga olib kelmoqda. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha respublikamizning sanoat korxonalarida soliqqa

tortilgunga qadar foydaga nisbatan soliqqa tortiladigan foyda 1,9 barobarga ko'p miqdorni tashkil etadi.²³

Mamlakatimizda mehnatga xaq to'lash shaklidagi xarajatlar hamda mahsulot (ish, xizmat) tannarxi tarkibiga kirib, narx strukturasi bir qismini tashkil etadi. Ammo ular belgilangan me'yorlardan oshgan qismida foydaning bir qismini tashkil etmasada foyda solig'i bazasiga kiritiladi. Me'yorlar doirasidagi qismida tannarxning oshishi esa ishlab chiqarish va sotish monopoliyasi (raqobat bo'lmaganda) sharoitida foyda summasiga ta'sir ko'rsatmaydi va narxni oshiradi.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimida mehnatga xaq to'lash xarajatlari to'liq sur'atda foyda solig'i bazasidan chiqariladi.

Qo'shimcha ish xaqiga hisoblangan soliq va ajratmalar tannarx tarkibiga kiritiladi va narx strukturasi shakllantiradi (mahsulot narxi oshadi), bu esa tannarx va tushumga nisbatan hisoblanadigan soliqlarning ham ko'payishiga ta'sir qiladi. Bu holatlar o'z navbatida rentabellikning va foydaning kamayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida foyda solig'i bazasining asosiy qismi mehnatga haq to'lash shaklidagi xarajatlardir, ya'ni rag'batlantirish xarakteridagi va modddiy yordam shaklida berilgan pul mablag'laridir. Bu soha birinchidan, ishchi kuchini ko'proq talab etadi; ikkinchidan, jismoniy og'ir mehnat talab etadi; uchinchidan, bu sohada savdo, maishiy xizmat, transport sohalaridagi kabi naqd pul aylanmasligi sababli ish haqlari bo'yicha daromadlarni yashirish mumkin emas. Bunday sharoitda ish haqlari oshirilmasa ishchilarni mehnatga jalb qilish mumkin bo'lmaydi, chunki o'rnatilgan meyorlar ularning o'rtacha yashash darajasini taminlay olmaydi. Bu holat korxona real foydasini kamaytirishidan tashqari, bu xarajatlarning soliq bazasiga kiritilishi sababli soliq yukini bu sohada yanada kuchaytiradi. Shuning uchun ham iqtisodiyot yuksalishida va boshqa iqtisodiy muammolarning hal qilinishida ishlab chiqarish korxonalarining ahamiyatini e'tiborga olgan holda bunday korxonalarda ish haqlarini solii bazasiga kiritmaslik

²³ Tashmurodova B.E. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T. BMA, 2007- 31 b.

lozim. Bundan tashqari, mehnat uchun xaq to'lash bilan bog'liq xarajatlarning deyarli barcha soliqlar va majburiy ajratmalar bazasiga kirishini e'tiborga olish lozim, ya'ni respublikamiz soliq tizimida MXFga soliq bosimi nihoyatda katta.

Foyda solig'i bazasiga qo'shiluvchi xarajatlaridan biri ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish sohasi ishchilari va boshqa xodimlari mehnatiga xarajatlar bo'yicha ayrimlarini masalan, xodimlarga beriladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektning umumiy ovqatlanish-yordamchi xo'jaliklar tayyorlaydigan mahsulotlar narxlari bo'yicha tavofutlarni soliq bazasiga kiritish noto'g'ri deb hisoblaymiz. Bu tavofutlar jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan jami daromadlariga kiritiladi. Korxonalar uchun bu erda daromad yo'q. Bolalarni tarbiyalayotgan ayollar ta'tiliga qonunchilikka muvofiq haq to'lash xarajatlari to'g'risida ham xuddi shunday deyish mumkin.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda iste'molni qondirish bilan bog'liq muammolarning yo'qligi, byudjet daromadlarining yuqoriligi iste'mol fondlarini chegaralashni talab etmaydi. Aksincha, talabning va iste'molning oshishi korportsiyalarning gullab-yashnashi uchun imkoniyat beradi. Bunday sharoitda foyda solig'i bazasiga mehnatga xaq to'lash xarajatlarini kiritishga umuman hojat bo'lmaydi va real foyda soliq bazasi hisoblanadi. Har qanday mo''tadil iqtisodiyoti bo'lgan davlatda faqat real foyda soliq bazasi bo'lishi lozim.

Foyda solig'i bazasiga kiruvchi xarajatlar tarkibidagi penya va jarimalar korxonalar real daromadlarini kamaytirgani holda, foyda solig'i bazasiga kiritilishi oqibatida qolgan moliyaviy resurslarning (foydaning) ham kamayishiga moliyaviy ahvoli yildan-yilga og'irlashib, korxonaning inqirozga uchrashiga olib keladi.

Bundan tashqari, ko'p hollarda moliyaviy jarima va penyalarning yuzaga kelishi korxonalarga bog'liq bo'lmagan sub'ektiv sabablar bilan bog'liqligini e'tiborga olish zarur deb o'ylaymiz. Soliq qonunchiligiga to'xtovsiz qo'shimchalarning kiritilishi, ularning o'z vaqtida joylarga etib bormasligi; buning ustiga bu o'zgartirishlar o'tgan oylar sanasidan boshlab kuchga kiritilishi; yo'riqnomalarda berilgan tushunchalarning aniqmasligi va yuzaga keladigan

tushunmovchilik, anglashilmovchiliklarga aniq javob bermasligi zanjirli tartibda korxonalar o'rtasida ulanib ketgan debitorlik, kreditorlik qarzlarning mavjudligi, narxlarning oshishi, moliyaviy resurslarning etishmasligi shunday sabablardandir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, qo'pol ravishda qonunchilikni buzish, qasddan daromadlarni yashirish va oddiy hisoblarda xatolarga yo'l qo'yish ham soliq qonunchiligi tomonidan bir xil jazolanadi va ular o'rtasida qat'iy chegara belgilanmagan.

Soliqqa tortish bazasini hisoblashda, soliq bazasining, mahsulotni sotishdan tushum, xarajatlar, hisobot foydasi va boshqalar buxgalterlik hisobi qoidalariga ko'ra shakllanishi asos qilib olinadi. Soliqqa tortish maqsadlarida esa soliq bazasi tegishli soliq qonunlari, yo'riqnomalar va boshqa turli me'yoriy hujjatlarga asosan aniqlanadi. Buxgalteriya va soliq hisoblarida iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashga turlicha yondoshishlari, soliq to'lovchilarning byudjet oldidagi majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ishlarni murakkablashtiradi, bu esa moliyaviy jarimalarga olib keluvchi ko'plab xatolarning yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Shularni e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish, qurilish sohasi korxonalarida to'langan jarima va penyalarning daromad (foyda) solig'i bazasiga kiritilishini tugatish lozim. Bunda bu tarmoqlarni qo'llab quvvatlash zarurati, shuningdek jarima va penyalarning yuzaga kelish sabablarini e'tiborga olish zarur deb hisoblaymiz. Chunki shartnomalar va qonunlar qasddan buzilmaydi, hech qaysi xo'jalik ataylab jarima to'lamaydi. Agar jarima to'langan bo'lsa korxonaga shu jazoning o'zi etarlidir. To'g'ri, bunda jarima va penyalarning to'lanishi evaziga foyda solig'i bazasi kamayishi mumkin. Ammo byudjet bunda umuman olganda yutqazmaydi. Chunki soliq qonunchiligini buzganlik uchun jarima(yashirilgan daromad va yana undan 100% summa) va penyalar to'liq sur'atda qo'shimcha daromad sifatida byudjetga o'tkaziladi. Agar jarimalar boshqa korxonalarga to'langan bo'lsa, bu jarima summasi uni olgan korxonaning daromadi sifatida ham foyda solig'i bazasiga kiritiladi (ya'ni jarima to'langan korxona ham, uni olgan korxona ham undan daromad solig'i to'laydi).

Soliq bazasini shakllanishidagi yana bir muammo tovar-moddiy boyliklarni qayta baholash bilan bog'langan. «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish tannarxiga kiruvchi xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi» to'g'risidagi Nizomga asosan tovar-moddiy zahiralar (TMZ) qiymatining inflyatsiya munosabatlari bilan qayta baholanishi ular qiymatining oshish foyda tarkibida ko'rsatilmaydi. Ammo soliq solish maqsadlarida foyda solig'i bazasiga qo'shiladi. Bu albatta noto'g'ri amaliyot, chunki bu erda korxona uchun haqiqatda hech qanday foyda yo'qligiga qaramay korxona ixtiyorida qoladigan foyda kamayadi. Bu erda qo'shimcha daromad bo'lishi mumkin emas.

Xuddi shunday, asosiy vositalarni uning sotish qiymati va qoldiq qiymati o'rtasidagi farq soliqqa tortiladigan daromad sifatida qabul qilinadi. Ammo bu erda inflyatsiya indeksi hisobga olinmaydi. Soliq bazasini hisoblashda inflyatsiya indeksini hisobga olish lozim, ammo asosiy vositalarning qayta baholangan qismini inflyatsiya indeksi bo'yicha hisoblangan foyda solig'i bazasidan chiqariladigan qismidan ayirib tashlash lozim.

Ishlab chiqarish xarakteridagi suv uchun to'lovning, atrof muhitga zararli moddalarni chiqarganlik uchun to'lovning me'yoridan ortiq qismining foyda solig'i bazasiga kiritilishi ham noto'g'ri. Chunki o'zi to'lov yana foyda soliq bazasiga kiritilmoqda. Ishlab chiqarishdagi moddiy boyliklarning tabiiy yo'qotilishidan me'yoridan ortiq ko'rilgan, aybdori topilmagan o'g'irliklardan ko'rilgan zararlarning ham foyda solig'i bazasiga kiritilishi korxona uchun ikki baravar moliyaviy zararga olib keladi. Boshqaruv apparatining kengayishiga olib keladigan va korxonalar foyda solig'i bazasiga kiritiladigan yuqori tashkilotga ajratmalar miqdorini ham kamaytirish lozim.

Moliyaviy xarajatlarga kiradigan qisqa muddatli (to'lov muddati o'tgan va uzaytirilganlari) va uzoq muddatli bank kreditlari uchun to'langan foizlarning soliq bazasiga kiritilishi bevosita xarajatning soliqqa tortilishini bildiradi va investitsiya uchun kreditlar olishni rag'batlantirmaydi (investitsion muhit yaratmaydi).

Bizning soliq tizimimizda qo'shilgan qiymat tarkibiga kiruvchi elementlar ancha kengroq. Xususan, hozirgi paytda uning tarkibiga quyidagilar kiradi: foyda,

ish haqi, uzoq muddatli va muddati uzaytirilgan kredit uchun foizlar, aktsiz, bojxona bojlari, mehnat xaqi fondiga nisbatan 25 foiz miqdorida hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov; nafaqa fondiga sotishdan tushumga nisbatan ajratma; davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar (yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslari uchun soliq, yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i), amortizatsiya ajratmasi va boshqa pul xarajatlardir.

3.2. Soliqlarni davlat byudjetiga o'z vaqtida tushishini ta'minlash masalalari

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti talablarini hayotga tadbiq etish va uni davr talablariga mos ravishda takomillashtirib borishda soliqlar hamda soliq funktsiyalarini bajaruvchi majburiy to'lovlar muhim ahamiyat kasb etadi. Agar mamlakat milliy iqtisodiyotida soliqlar odilona va oqilona joriy etilgan taqdirda, ular notijorat asosida faoliyat yuritayotgan muassasalar moliyaviy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatsa, tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlariga esa bilvosita ta'sir etadi.

Har bir alohida davlatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum bir muvozanatlilikni ta'minlash hisobiga rivojlansagina, o'sha mamlakatdagi aholi va xo'jalik sub'ektlari moddiy farovonlikka erishishi mumkin. Bizga ma'lumki, mamlakatdagi ijobiy makro-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri - bu davlat moliyasining ajralmas qismi bo'lgan davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismini muvozanatligini ta'minlash yoxud xarajatlar qismi daromadlarga nisbatan keskin oshib ketishining oldini olishdir.

Davlat byudjetidan bir qator jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan xarajatlarni o'z vaqtida va doimo amalga oshirishini ta'minlash uchun soliqlar bir maromda va to'lig'ligicha byudjet daromadiga tushib turishini ta'minlash lozim. Biroq, shu narsani alohida ta'kidlash joizki, bozor munosabatlari endigina rivoj topayotgan bir sharoitda, soliqlarning byudjet daromadiga doimo va bir tartibda kelib turishini ta'minlash eng og'ir iqtisodiy tadbirlar qatoriga kiradi. Bunday bo'lishning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabab va muammolari bor, albatta.

Mavjud muammolarni bartaraf etish yoki ma'lum bir miqdorda ta'sir ko'lamini qisqartirish ilmiy asoslarga tayanishni taqozo etadi. Aks holda, ko'r-ko'rona va sub'ektiv ehtirolarga berilib qilingan har qanday moliyaviy tadbir, mavjudlaridan-da ziyod iqtisodiy, ijtimoiy zararlar keltirishini qisqacha o'zimiz bosib o'tayotgan bozor amaliyoti, shuningdek, bu borada bozor munosabatlari qonuniyatini milliy iqtisodiyotiga joriy etish bo'yicha yuqori tajribaga ega bo'lgan davlatlar amaliyoti ham isbotlab turibdi.

Haqiqatdan ham iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlatning ixtiyorida zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni to'plashning lozimligi, mavjud byudjet taqchilligini kamaytirish, byudjetdan qilinadigan xarajatlarni o'z vaqtida amalga oshirish, kuchli ijtimoiy himoya siyosatini yurgizish, iqtisodiyot tarmoqlaridagi nomutanosiblikni oldini olish, soliqlarni to'lashdan bosh tortish hollarini kamaytirishning ob'ektiv zarurligi bilan belgilanadi.

Buning uchun soliqlarni undirishning zarurligi, soliqlarning o'z vaqtida va belgilangan summalarda undirilishi, soliq summalarining o'z vaqtida byudjet ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayon sifatida qaramoq zarur.

Har bir alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarning ixtiyoriy yoki erkin shaklda bo'lmasdan, aksincha, aniq belgilangan shaklda bo'lishi, soliqni to'lash muddati, to'lash uslubi va to'lov summasi soliq to'lovchi va boshqalar uchun tushunarli va aniq bo'lishi kerakligi, har qanday soliqning eng avvalo, soliq to'lovchiga to'lash qulay bo'lgan muddatda va uslubda undirilishi lozimligi soliqlarning byudjetga muddatida va uslubda undirilishi lozimligi soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning mohiyatini ochib berishda xizmat qiladi. Soliq tizimiga asos sifatida olingan mumtoz tamoyillarga ham xuddi shunday vazifalar qo'yilgan.

Soliqlarning o'z vaqtida byudjetga tushib turishini ta'minlashning mohiyati xar bir davlatda asosiy qonunlar bilan belgilanganligi kabi, bizning respublikamizda ham mamlakatimiz Konstitutsiyasining 51-moddasida "Mamlakat

fuqarolari qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburlarlar" –deb belgilab qo'yilgan.

Bundan asosiy maqsad davlat o'z oldiga qo'ygan vazifalarni moliyaviy mablag'larsiz bajara olmaydi. Moliyaviy mablag'lar esa davlat xazinasiga asosan soliqlar ko'rinishidagi mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Shuningdek, soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning yana bir ahamiyati byudjetdan qilinadigan ijtimoiy-madaniy tadbirlar, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish, iqtisodiy tarmoqlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, hokimiyat, boshqaruv va sud organlari hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash, malakat mudofaa qobiliyatini mutahkamlash xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish uchun mablag'lar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash o'z-o'zidan amalga oshirilmasdan balki ma'lum bir mexanizmning harkati yordamida damida sodir etilishi lozim. Ushbu mexanizm ya'ni "Soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash mexanizmi"ning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun uning tarkibiy qismlari bo'lgan "Soliq to'lovchilar", "Soliq undiruvchilar" va ularning o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi "Huquqiy me'yoriy hujjatlar"ga va ular har biri elementlarining sog'lom faoliyat ko'rsatishiga bevosita bog'liqdir.

Tahlil qilingan yillar davomida respublika byudjetining daromadlar qismiga tegishli bo'lgan bashorat ko'rsatkichlari asosiy soliq turlari bo'yicha bajarilayotgan bo'lsa-da, lekin bu narsa jada katta mehnat va mashaqqatlar evaziga eirishlayotganligini inobatga olish lozim. Bu esa o'z navbatida soliqlarning byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash mexanizmida tegishli nuqson va kamchiliklarning borligidan dalolat beradi.

Biz ushbu kamchilik va nuqsonlarni umumlashtirib quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

- umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'implarni byudjetga yillarning yillarning choraklari bo'yicha undirilish rejalarining haqiqiy hisob-kitoblarga

etarli darajada asoslanmasdan tuzilayotganligida, rejalarni tuzishda yillarning ayrim choraklari bo'yicha reja ko'rsatkichlarining pasaytirib, va aksincha ayrim choraklarida teskari ya'ni ko'paytirib tuzilayotganligida;

- rejalarni tuzishda ushbu hududda ishlab chiqarilayotgan va realizatsiya qilinayotgan mahsulotlar hisob-kitobiga e'tibor berilmayotganligida yoki rejalarni tuzishda hududda mavjud bo'lgan soliq to'lovchilarning real moliyaviy ahvoli bilan etarlicha muvofiqlashtirilmaganligida:

- byudjetga undirilishi lozim bo'lgan soliqlar va yig'implarning barcha hollarda ham soliq to'lovchilarga tushunarli emasligi, soliqlar va yig'implarni byudjetga undirish jarayonida adolatlilik tamoyiliga etarli darajada rioya qilinmayotganligi, soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliq yukining ular o'rtasida amalda notekis taqsimlanganligi, soliqlarni o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turishga harakat qilayotgan soliq to'lovchilar uchun soliq yukining og'irligi hamda soliqlar to'lashdan turli yo'llar va vositalarni qo'llash evaziga bo'yin tortayotganlar uchun soliq yukini sezilarli emasligi;

- umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implarning byudjetga o'z vaqtida undirilishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy asoslarning etarli darajada takomillashmaganligi, ularning qisman nobarqarorlik xarakteriga egaligi, tez-tez o'zgartirilib, turilganligi, ularda nisbatan noaniq hamda turli shakl va ma'noda talqin qilinishi mumkin bo'lgan holatlarning mavjudligi;

- soliq undiruvchilar tomonidan soliqlar va yig'implarni undirishda soliq to'lovchilarning real iqtisodiy ahvolini hisobga olmaslik hollarining sodir etilayotganligi va muammolarni hal etishda sun'iy tarzda yondoshishning mavjudligi;

- ko'pchilik hollarda hech bir ob'ektiv sabablarni va kelgusi davrlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ayanchli iqtisodiy vaziyatni inobatga olmagan holda doimo byudjet manfaatlarini oldingi o'ringa qo'yilishi hamda soliq undiruvchilarda o'z faoliyati natijalaridan moddiy manfaatdor bo'lishlikni etarli darajada shakllanmaganligi;

- soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'lab turmasdan moliya-byudjet to'lov intizomiga rioya qilmaslik hollarining nisbatan yuqori darajada ekanligi;

- umumdavlat va mahalliy soliqlarning byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalar to'lab turishdan bo'yin tortish hollarining ko'pligi, soliqqa tortish bazasini ongli ravishda noto'g'ri belgilanayotganligi, soliq stavkalarining noto'g'ri qo'llanilayotganligi hamda tegishli soliq imtiyozlaridan noto'g'ri foydalanilayotganligi;

- soliqlarni byudjetga o'z vaqtida va belgilangan summalarda undirilishini ta'minlovchi mexanizmning etarli darajada takomillashmaganligi, bu mexanizm tarkibiy qismlari va ular elementlarining ayrim hollarda nosog'lom ravishda ishlayotganligi, ushbu mexanizmning barcha holatlarda ham etarli darajada oddiy va sodda emasligi.

Ushbu holatlarning mavjud ekanligi soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushib turishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashni taqozo etadi. Buning uchun eng avvalo soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlash mexanizmining hozirgi sharoit talablariga etarli darajada javob berolmay qolganligini inobatga olib, uni ilg'or xorijiy mamlakatlar soliq qonunchiligi xususiyatlaridan foydalanib, Respublikamizdagi real iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda o'zgartirish lozimdir.

Bizning fikrimizcha soliqlarni byudjetga o'z vaqtida tushib turishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash paytida, umumiy tarzda respublikamiz soliq solish mexanizmiga xos bo'lgan quyidagi holatlarga ham alohida e'tibor bermoq zarur deb o'ylaymiz:

- soliq tushumlari tarkibiy salmog'ining alohida olingan soliqlar va soliq guruhlari bo'yicha doimiy ravishda o'zgarib turganligi;

- mamlakat miqyosida va alohida olingan ma'muriy hududlar miqyosida ham soliqlar masalasi bo'yicha qarorlar qabul qilish mexanizmida ma'lum darajadagi nuqsonlarning mavjud ekanligi va bu mexanizm uchun xalqaro soliq huquqi me'yorlarining har doim ham xos emasligi;

- byudjet daromadlarini soliq metodlarini qo'llash orqali shakllantirishda soliq munosabatlarining yaxlitligi, mantiqiyliqi, barqarorligi va tizimlilikiga etarli darajada erishilmaganligi;

- ba'zi bir soliqlarni xisoblash texnikasining etarli darajada tizimli emasligi va boshqa holatlar.

Soliq amaliyotida korxonalarda soliq qarzini majburiy undirish choralariga quyidagilar kiradi:

- soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish;

- undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratish;

- undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.

Natijada pul mablag'lari tegishli hisob-raqamlarga yo'naltirilgunga qadar korxonaga nisbatan penya hisoblanishi bu bilan 3 ta salbiy oqibat o'z-o'zidan keltirib chiqarmoqda. Bular:

1. Sun'iy ravishda soliq qarzlarining paydo bo'lishi;
2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida kelib tushmasligi;
3. Sun'iy ravishdagi ustamalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik-faoliyatiga ortiqcha yuk bo'lishi.

Bundan kelib chiqib xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik-faoliyatlariga va tegishli byudjetlarning faqat daromadlar qismining bajarilishiga hamda sun'iy ravishda soliq qarzlarining oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatishni oldini olish maqsadida sud ijrochilari depozit hisob raqamiga pul tushgandan to korxonaning soliq qarzini to'lagungacha davrdagi tartibini takomillashtirish masalasini ko'rib chiqish kerak.

Shuning uchun ham muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmini takomillashtirishning yo'nalishlaridan biri bu jarayonni tartibga solib turuvchi huquqiy hujjatlarni xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan huquqiy hujjatlarni o'rganib o'zimizning sharoitimizdan kelib chikib moslashtirish bugungi kun talabidir.

III- bob bo'yicha xulosalar

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini soliqlar vositasida tartibga solish tizimini takomillashtirish va soliq islohotlari samaradorligini oshirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishimiz kerak:

- soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmidagi mavjud muammolarni bartaraf etish;
- soliq munosabatlarini o'zida aks ettirgan ilmiy tadqiqotlardagi tavsiyalarni soliqqa tortish tizimiga joriy etish va samaradorligini baholash;
- sanoat korxonalariga taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va preferentsiyalarini taqdim etishni hududlar bo'yicha tabaqalashtirishni yanada takomillashtirish;
- soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha soliq qarzdorligini kamaytirishda xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalaridan samarali foydalanish.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimizda yuqori o'sish sur'atlariga erishi sharoitida olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlari sifatida – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda soliqlar vositasida ular faoliyatini rag'batlantirish kabi masalalar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda keng ko'lamli soliq islohotlari amalga oshirilib, ular aholi real daromadlari o'sishiga ko'maklashish, ishlab chiqarishni

modernizatsiya qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Yuqoridagi olib borgan tahlillarimiz natijasida aktsiyadorlik jamiyatlarini soliqqa tortish mexanizmini amaliy ma'lumotlar asosida o'rganish natijasida biz tomonimizdan quyidagi xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

1. Soliqlar bu davlat tomonidan qonuniy tartibda o'rnatilgan, yuridik va jismoniy shaxslardan evaziga biror manfaatini qondirmaslik asosida byudjetga davlatning moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida shuningdek, iqtisodiyotni tartibga solib turish maqsadida undiriladigan majburiy to'lovlardir.

2. Tadqiqot ishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini soliqqa tortish tizimini tashkil etishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar keltirildi:

- adolatlilik;
- soliq qonunchiligining barqarorligi va tushunarlilik;
- takrorlanmaslik (ikkiyoqlama soliqqa tortmaslik);
- soliq undirish jarayonining kamsarfliligi.

3. Yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'lovlari qanday manbadan, qanday hajmlarda, qanday muddatlarda va shartlarda undirilishidan qat'iy nazar korxonaning ishlab chiqariladigan tovarlar bahosida, ishlab chiqarish va sotish xarajatlarida, foydasi (daromadlari)da va nihoyat korxona ishlovchilari uchun ish haqi to'lovlarida o'z aksini topadi yoki boshqacha qilib aytganda, korxonalarning soliq majburiyatlarini o'zgartirishi yoki tovar bahosini, yoki ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini, yoki ish xaqi fondi shakllanishi va tarkibini, yoki korxona ixtiyorida qoladigan sof foyda xajmlarini o'zgartirishga ta'sir etadi.

4. Bizningcha makrodarajada iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish siyosatining yetarli darajada o'z natijalarini bermayotganining asosiy muammolaridan biri bu aksariyat korxonalarda soliq menejmenti ko'nikmalarining mavjud emasligi degan xulosaga kelinadi.

5. Soliqlarning byudjetga o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlashda xo'jalik subyektlarining mas'uliyatini oshirish va ilg'or xorij tajribasini respublikada izchil

qo'llash maqsadida soliq to'lovlarining kechiktirilgan muddatlariga penya hisoblashda tabaqalashtirilgan stavkalarni joriy etish maqsadga muvofiq.

6. Soliqlar bo'yicha mavjud imtiyozlar turining ko'pligidan kelib chiqib, bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan berilgan soliq imtiyozlarini hisoblashda aniqlangan tafovutlarni byudjetga moliyaviy jarimalar qo'llagan holda undirishni joriy etish zarur.

7. Dotatsion tumanlarda tashkil etilgan yangi korxonalarga nisbatan soliq stavkalarini imkon qadar kamaytirish lozim. Bunda:

- korxona o'z mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf eta olish salohiyatiga ega bo'lishini ta'minlash va qayta tiklanmaydigan tabiiy boyliklar, yer va suv zaxiralaridan samarali va tejamkorlik bilan foydalanishni optimallashtirishga alohida soliq rejimini tashkil etish lozim;

- mahalliy xomashyoni qayta ishlovchi korxonalarda byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar uchun undiriladigan to'lovlarni yalpi ichki mahsulot va iqtisodiy rivojlanishning belgilangan sur'atlarida optimal ravishda muvofiqlashtirilishi kerak.

8. Davlat shartnomasi asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalarga nisbatan soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar stavkalarini tabaqalashtirishni tavsiya etamiz.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4434-sonli Farmoni asosida:ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Iqtisodiy islohotlar sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ahamiyatini inobatga olib mazkur tadbirlarni to'liq byudjet mablag'i hisobidan moliyalashtirishni tashkil qilish lozim.

- Bugungi kunda mamlakatimiz hududlarining soliq salohiyatini e'tiborga olgan hola soliq stavkalarini qo'llash lozim. Yuridik shaxslardan undiriladigan

(QQS, foyda solig'i, aktsiz solig'i) soliqlar bo'yicha proportsional stavka o'rniga tabaqalashtirilgan stavkalarni qo'llash lozim. Bunda asosiy mezon sifatida hududning soliq salohiyatini hisobga olish lozim. Mazkur tadbir milliy iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish tizimi samardorligini oshiradi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini qo'llab quvvatlash maqsadida hududlarning soliq salohiyatini quyidagi omillarga asosan baholashni lozim topdik:

- hududda yaratilgan YaHM tarkibida sanoat korxonalarining hissasi;
- hududda aholining doimiy ish bilan bandlik darajasi va keyingi yillarda vujudga kelgan ishsizlik dinamikasi;
- mahalliy byudjet daromadlarining miqdori, mahalliy byudjetga yuqori byudjetdan beriladigan dotatsiya va subsidiyalar miqdori;
- hududda iqtisodiyotning asosiy sohalari bo'yicha bir necha yillar davomida ixtisoslashuv darajasi va boshqalar.

– Ishlab chiqarish sektori zimmasidagi soliq yukini kamaytirish asosan korxonalar daromadini soliqqa tortish darajasini pasaytirish vositasida amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar uchun belgilangan soliqlarning yuqori stavkalari ijobiy natijalar bermasligi bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni texnik jihatdan qayta qurollantirish uchun yetarli mablag'larni yo'naltirish imkoniyatini cheklaydi.

Yuqorida biz tomonimizdan keltirilgan amaliy tavsiya va takliflarning soliq amaliyotiga joriy qilinishi soliq yukini optimallashtirish va soliq siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2010 y. – 400 b.

1.3. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son.

1.4. O'zbekiston Respublikasining “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi” Qonuni, -T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 19-son, 210-modda.

1.5. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni, -T.: Xalq so'zi, 2006 yil, 21 sentyabr.

1.6. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni. - T.: Xalq so'zi, 1997 yil, 29 avgust. 1-2 bet.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 17 apreldagi «2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1957 sonli qarori.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2099 sonli qarori.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1887 sonli qarori.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675 sonli qarori.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449 sonli qarori.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli qarori.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi «2009 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida»gi PQ-1048-sonli qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29 yanvardagi «Uy-joy fondini foydalanishga tayyor xolda topshirish shartlarida rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirishni ragbatlantirishga doir ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1051 sonli qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «2010 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-640 sonli qarori.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3665-sonli Farmoni.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-sonli Farmoni.

II. Prezident asarlari

2.1. Karimov I.A.. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent, 2014. – 64 b.

2.2. Каримов И.А. Бош мақсадимиз — кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш. Халқ сўзи, 2013 йил 19 январь.

2.3. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: “Ўзбекистон”, 2012. – 36 б.

2.4. Каримов И.А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш - мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир.–Т.: 19.Т. Ўзбекистон, 2011.

2.5. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза), “Халқ сўзи”, 2010 йил 12 ноябрь (№ 220).

2.6. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь.

2.7. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир – Т.: “Ўзбекистон”, 2010. 80 бет.

2.8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-Т.: «O'zbekiston», 2009 yil. 56 bet.

2.9. Каримов И.А. «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш- давр талаби» -Т.: Халқ сўзи, 14 февраль, 2009 йил.

2.10. Каримов И.А. “Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир” – Т.: “Халқ сўзи”, 2008 йил 9 февраль.

2.11. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007 йил. 39-40 бетлар.

2.12. Каримов И.А. “Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир”. – “Халқ сўзи”, 2007 йил 13 феврал.

2.13. Каримов И.А. «Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор». –Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 25 февраль.

2.14. Каримов И.А. «Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим». – Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 11 февраль.

2.15. Каримов И.А. «Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир». – Т: Халқ сўзи, 2005 йил 29 январь.

2.16. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. 358 б.

2.17. Каримов И.А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: Ўзбекистон, 1995 йил.

III. Соҳага оид меъёрий ҳужжатлар

3.1. Солиққа оид қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 2014 йил. Тошкент: «NORMA». 2014.- 540 бет.

3.2. Солиққа оид қонун ҳужжатларидаги янгиликлар. 2013 йил. Тошкент: «NORMA». 2013.- 562 бет.

IV. Asosiy adabiyotlar

4.1. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. O`quv qo`llanma. T.: “ILM ZIYO”, 2012. – 340 б.

4.2. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – “Ўқитувчи” НМИУ, 282 б.

4.3. Т.С.Маликов, П.Т.Жалилов. Бюджет-солиқ сиёсати, - Т.: “Академнашр” 2011 й. 154 б.

4.4.Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик-Т.:Шарқ, 2009. 448 бет.

4.5. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.

4.6. Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти, Дарслик (қайта ишланган)- Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003.-247 бет.

4.7. Налоги и налоогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбутова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.

4.8. Никулкина И.В. Общая теория налоогообложения: учеб. пособ. – М.: Эксмо, 2010. – 176 с.

4.9. Миляков Н.В. Налоги и налоогообложение: Учебник. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. - 520 с.

4.10. Тухлиев Б.К., Юсупов О.А., Агзамов А.Т, Тўхсанов Қ.Н. Солиқлар ва солиққа тортиш: Ўқув қўлланма. – Т.: 2007. -320 б.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

5.1. G.Qosimova, Z. Karimova. Byudjetdan tashqari fondlar. T. "Iqtisod-moliya". 2009 y. 212 b.

5.2. А.Воҳобов, З.Срожиддинова, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети. Ўқув қўлланма. – Тошкент: "Иқтисод-молия", 2002 йил.

5.3. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: анализ реальных схем. – М.: Эксмо, 2011. – 308 с.

5.4. Молчанов С.С. Налоги: расчет и оптимизация. – М.: Эксмо, 2010.– 544с.

5.5. Налоги и налоогообложение: Учебник. / Под. ред. И.А. Майбутова. 2-е изд., перер и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.-511с.

5.6. Паскачев А. Б. Налоги и налоогообложение : учеб. пособие. — М.: Высшее образование, 2008. — 384 с.

5.7. A.S.Begmatov, M.B.Xamidulin, M.Sh.Bo'taboev. Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv.- T: «Akademiya» nashriyoti, 2007 y., 224 b

5.8. О.А Красноперова Комментарий к главе 25 Налогового кодекса РФ. «Налог на прибил организаций» изд. «Проспект» Москва 2002, стр 4-5.

5.9. Налоговое право/ Под ред. А.А.Тедеев Налоговое право Москва «Эксмо» 2004 стр 620.

5.10.Маликов Т. Солиққа тортишнинг долзарб масалалари. Тошкент. 2000 йил. 276-бет.

5.11.Рикардо Д. Сочинения т. I. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. - М.: «Госполитиздат», с.360.

5.12.Пепеляев С.Г. Основы налогового права. М.: 1995, с 289.

5.13.Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Т.: “Меҳнат”, 1995 й. 377-бет.

5.14.Темур тузуклари. Тошкент. 1993 йил. 98 бет.

VI. Davriy nashrlar, statistik hisobotlar va to'plamlar

6.1. “Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида бюджет-солиқ сиёсатини такомиллаштиришнинг долзарб вазифалари” мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Солиқ академияси, Тошкент – 2012 йил, 128 бет.

6.2. Мамлакатимизни янгилаш ва модернизация қилиш шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда солиқ тизимининг ролини ошириш масалалари.- Т.:ТДИУ, 2011 йил 16 март.

6.3.Tashmurodova B.E. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliqlardan samarali foydalanish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Т. ВМА, 2007- 31 б.

6.4. В. Ю. Галкин. «Некоторые вопросы теории налогов». Журнал «Финансы» № 1, 1993 г. стр.35.

6.5. Олимжонов. О. Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида солиқ сиёсати. «Ҳаёт ва иқтисод», 1992. 5-сон.

6.6. Черник Д.Г. «Налоги в рыночной экономике», «Финансы», М.: 1992, - №3. с.19 с.21.

6.7. Болдырев. «Финансы капитализма», «Финансы», М.:1987. с.21.

6.8. “Халқ сўзи” газетаси.

6.9. “Солиқлар ва божхона хабарлари» газетаси.

6.10. Солиқ тўловчининг журнали.

6.11. Ўзбекистон Республикаси солиқ органлари фаолиятининг 2013 йилги натижалари. - Т.: ДСҚ, 2014.

6.12. Shofirkon tumani Davlat soliq inspeksiyasining 2013-2014 yillari hisobot ma'lumotlari.

6.13. "Shofirkon paxta tozalash" OAJ hisobot ma'lumotlari

VII. Internet saytlari

7.1. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.

7.2. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

7.3. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.

7.4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

7.5. www.cer.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti.